

Marifat

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqa boshlagan // e-mail: info@marifat.uz // 2026-yil 15-aprel chorshanba №15(9600)

“Do'stingiz kitob bo'lsin!”

Prezidentimiz 2026-yil 18-mart kuni Samarqandda “Eco-schools Uzbekistan” loyihasi bilan tanishganida yoshlarni yana bir bor ilm olishga da'vat qildi.

Har dilda oftob bo'lsin,
Shijoat, shitob bo'lsin.
Shu mangu xitob bo'lsin –
Do'stingiz kitob bo'lsin!

Anglash uchun dunyoni,
Ro'shno bilan ro'yoni,
Zulmat bilan ziyoni –
Do'stingiz kitob bo'lsin!

O'qi, izlan, ol ta'lim,
Ilm yo'li – mursalim,
Hayot ustoz muallim –
Do'stingiz kitob bo'lsin!

Quyosh barchaga tengdir,
Do'st kim-u dushman kimdir?
Ong-u shuurga singdir –
Do'stingiz kitob bo'lsin!

Yurtga jon fido qilsang,
Millatim, xalqim desang,
Yorug' bo'ladi ertang –
Do'stingiz kitob bo'lsin!

Istiqlol ulug' ne'mat,
Boy berish – og'ir zillat,
Yashasin desang millat,
Do'stingiz kitob bo'lsin!


O'tdi ne-ne tamaddun,
Bong urar qadim gardun.
Ey siz, to'ymagan mardum,
Do'stingiz kitob bo'lsin!

Qalqib turibdi ochun,
Bosmasin yurtini quzg'un.
Dunyoni olmoq uchun,
Do'stingiz kitob bo'lsin!

Quyoshday balqqan xalqim,
Bardoshday qalqqan xalqim,
Ummonday oqqan xalqim,
Do'stingiz kitob bo'lsin!

Nurulloh OSTON

CHIN SHARQONA ROMAN



8-, 9-, 10-betlar

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?



Azaldan tarbiya ta'limdan ustunligi ta'kidlab kelinadi. Konstitutsiyaning 77-moddasida ham ta'limdan avval tarbiyaning yozilishi shunga dalolatdir.

Bugun darsga kechikib kelgan o'quvchilardan birining navbatchi o'qituvchiga ovozini ko'tarib, qo'pol gapirishi diqqatimni tortdi. O'quvchini yonimga chaqirib, kechikish sababini so'radim.

Sabab asossiz edi. O'quvchiga savolga to'g'ri javob berilsa, olam guliston ekanligini, vahima va jazavaga tushishning hojati yo'qligini tushuntirdim.

Eng hayron qolarli tarafi – shu qizimiz 4 ta fandani sertifikat egasi. Tarbiya haminqadar bo'lsa, “a'lochi”ligi ham tatimas ekan.

Gulchehra ASHUROVA



Taklif



Tahririyatdan:

Gazetamizning 2026-yil 8-aprel sonida e'lon qilingan Jo'ra Xudoyberdiyevning "Chig'atoy tiliga oid ayrim qarashlar haqida" maqolasi ko'pchilikda qiziqish uyg'otdi. Ona yurtimiz va ona tilimiz tarixi, taqdiriga befarq bo'lmagan ustoz shoir va adiblar, jonkuyar olim va ziyolilarimiz maqola yuzasidan o'z fikr-mulohazalari, munosabatlarini bildirdilar. Quyida ana shunday munosabatlardan biri e'tiboringizga taqdim etilmoqda.



"Yangi O'zbekiston" so'zlari sodda, ammo o'zida olam-olam ma'no mujassam etganini ko'raman, ko'nglimda iftixor hissini tuyaman, faxrlanaman, go'yoki ko'p narsalarni yangidan kashf etganday bo'lamen. "Mustaqillik", "o'zbek", "xalq", "tarix", "zafarlar"... Nechog'lik ko'ngilga ruh berguvchi, qanotlantiruvchi purma'no so'zlar! Ularning har biri haqida bir kitob yozish mumkin, desak mubolag'a emas. Bunday kitoblar yozilayotir ham.

Jafokash yurtimiz ko'p bosqinchilarni ko'rdi, har biri kelib, yurt egasi bo'lgan xalqdan so'ramay-netmay, o'zicha unga yangi nomlar qo'ydi, chunonchi, Transoksaneya, Movarounnahr, Chig'atoy ulusi, O'rta Osiyo degandek... Milliy qadriyatlar, madaniyat-u ma'naviyat poymol etildi, tarix toptaldi, tarixiy haqiqatlar xaspo'shlandi...

O'llohga hamd-u sanolar bo'lsin, mana o'ttiz besh yildirki, qadim Turon, O'zbekiston yurtida mustaqillik shabadasi esmoqda, Yangi O'zbekiston muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida qaddini baland ko'tarib, jahon maydoniga chiqib bormoqda, dunyo hamjamiyatidagi o'z o'rnini mustahkam egallamoqda. Boshqacha aytganda, bugun o'zbek o'zbek bo'lib olamga bo'y ko'rsatmoqda.

Mustaqilligimiz bizga o'zligimizni qaytarib berdi, tarixiy haqiqat qaror topdi, milliy qadriyatlar tiklandi. O'zimiz ekan daraxtning mevasi o'zimizga nasib etmoqda. Bu qutlug' jarayon aslo to'xtamaydi.

"O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q" – bu fikr isbot talab qilmaydigan aksiomadir. Inchunin, tariximizni chuqur o'qib-o'rganmog'imiz, kechagi kunni esdan chiqarmasligimiz, hur hayotning qadriga yetishimiz, uni asrab-avaylashimiz lozim. Tariximizni teran bilaylik.

TARIX SABOQLARIDAN

Tarixni o'rganganda, o'tmishda millat, Vatan, Vatan farzandlari sha'niga bo'lgan har xil noxolis munosabatlarni, pisandsizliklarni ko'rib, tabiiyki, ko'ngil ozor yeydi. Tarixda ko'p xatolar o'tgan, agar tuzatish mumkin bo'lsa, uni xato emas, adashish, deb qaramoq kerak. Bir misol. To'xtamishxon bilan jangga borayotgan Amir Temur Ulutovda katta xarsangtoshga safar mazmunini o'zi o'yib yozdiradi. Shunda bobomiz o'zini "Turon sultoni" deb ataydi. To'g'ri, yurtimiz Turon, buyuk Turon davlatiga asos solgan zot – Amir Temurdir. Ammo rasmiy tarixda "Turon davlati" emas, "Temur davlati" o'rganib kelinmoqda. Natijada, buyuk davlatimiz haqida boshi yo'q-davomi yo'q, yolg'iz bir kishining davlati deganday taassurot paydo bo'ladi. Buning sababi, tariximizni ovrupoliklar yozganida, ular g'araz bilan yurtimizni parokanda ko'rsatish niyatida Turon mamlakatida hukm surgan davlatlarni alohida-alohida, go'yo ularning bir-biriga aloqasi yo'qdek, bo'ltak-bo'ltak holda talqin etishadi. Holbuki, o'zbek davlatchilik tarixi uch ming yillarga boradi. Nega, Turon yurtida Turk xoqonligi, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Xorazmshohlar, Temuriylar, Shayboniylar, Ashtarxoniylar va hokazo davlatlarimiz, tarix fanida bir-biriga bog'lab o'rganilmaydi? Maqsad, Turon yurtini olaquroq qilib ko'rsatish, oqibatda tarixni, millatni kamsitishdan iborat. Turon, Turkiston ekanini bilib turishsa-da, ovrupolik tarixchilar yuqoridan qarashib, boshqa nomlar qo'yishadi, bizlarni yagona millat deb hisoblashmaydi ham, o'nlab qavmlar nomlarini keltirib, manzarani xiralashtirish payida bo'lishadi. Shunday munosabatni tilimizga nisbatan ham qo'llaganlar.

Hamma balo tariximizni o'zimiz yozmaganimizda!

Men bu mavzuda ilgari ham baholi qudrat fikr bildirgan edim, lekin shu kunlarda yuz berayotgan ayrim voqea-hodisalar yana shu masalaga qaytishga majbur qildi.

Bir necha yillar ilgari poytaxtimizdagi taniqli shaxslar dafn etiladigan qabriston rasman "Chig'atoy qabristoni" deb atalar edi. Keyingi vaqtlarda uning nomi Forobiy qabristoni deb o'zgartirildi. Biroq odamlar orasida bu maskan haligacha avvalgi nomi bilan tilga olinadi. Qabristondan tashqari hozir ham "Chig'atoy" nomi bilan bog'liq "Chig'atoy-patir", "Chig'atoy somsa", "Chig'atoy korzinka" singari supermarket, kafe va somsaxonalarni uchratish mumkin.

O'z-o'zimga savol berdim: nimaga bu joyning nomi Chig'atoy deb ataladi?

Odatda, joy nomlari, tarixiy nomlar, atamalar chuqur mazmunga ega bo'ladi, ular behuda qo'yilmaydi. Bu joy nomi qandoq qilib mo'g'ul xoni Chig'atoyga bog'lanib qolgan ekan? Yoki bu yer o'z vaqtida uning farmoni bilan qabristonga aylantirilganmi?..

Kimdir, bu nom bu yerda mavjud bo'lgan Chig'atoy darvoza bilan bog'liq bo'lsa kerak, deya fikr bildirdi. Bunda jon borday edi. Ko'p bilgich odamlar bilan uchrashdim, so'rab-surishtirdim. "Chig'atoy" degan toponimning qayerdan paydo bo'lganini bilib olarman, degan niyatda turli kitoblarni ko'rib chiqdim, "Toshkent" ensiklopediyasini varaqladim.

Tarixchi Muhammad Solihxo'janing "Tarixi jadayi Toshkand" asarida yozishicha, XIV asr oxirida shaharning 12 darvozasi bo'lgan(Qiyot, Turk, O'zbek, Taxtapul, Qorasaray, **Chig'atoy**, Su'boniyon(Sag'bon), Ko'kcha, Kamondaron, Qang'li, Beshog'och, Qatag'on).

Rus tarixchisi va diplomati K.Miller 1740-yilda Toshkentda 8 ta darvoza bor edi, deydi. Darvozalar nomlari o'zgargan, ular ichida **Chig'atoy** nomi yo'q. Darvozalardan biri Tarsoxon deb atalib, keyinchalik "Chig'atoy"ga o'zgartirilgan. Ruslar bosib olgan 1865-yilda esa 12 darvoza bo'lgan(Labzak, Taxtapul, Qorasaray, Sag'bon, **Chig'atoy**, Ko'kcha, Samarqand, Kamolon, Beshog'och, Qo'ymas, Qo'qon, Qashqar).

Olmazor tumanidagi "Yangi turmush" mahallasi(Forobiy ko'chasi, 230)ga 1991-yilda "Chig'atoy darvoza" nomi berilgan. 1992-yilda A.Ibragimov bilan X.Toshmuhamedov mahallalari qo'shilishi natijasida "Chig'atoy Oqtepa" mahallasi(Forobiy ko'chasi, 416) tashkil topgan. Nomi – Chig'atoy Oqtepasi arxeologik yodgorligidan olingan. Chig'atoy Oqtepasi arxeologik yodgorligini esa olimlar – V-VI asrlar, X-XII asrlarda barpo etilgan deb hisoblashadi, ammo qachon Chig'atoy nomi bilan atalib qolgani ma'lum emas. Bu nom arxeologlar tomonidan qo'yilgan ko'rinadi (Fayoztepa, Mingo'rik va h.k. kabi). Toshkentning shimoli-g'arbida, Kaykovus kanali bo'yida joylashgan. Bu yerda 1927-yilda tarixchi va etnograf olim N.G.Malliskiy va 1940-yilda M.E.Voroneslar izlanishlar qilishgan, 1968-yilda Toshkent arxeologiya ekspeditsiyasi tekshirishlar olib borgan. Hozir Chig'atoy Oqtepasi tekislanib ketgan, o'rmiga zamonaviy uylar qurilgan. "Chig'atoy Oqtepa" mahallasi shu yerda...

"Chig'atoy darvozasi" nomidan olingan Chig'atoy ko'chasi("Chig'atoy qabristoni" ham xuddi shundoq atalgan shekilli) 1970-yilda o'zgartirilib, Forobiy nomiga qo'yilgan("Toshkent" ensiklopediyasi. T., 2009.597-bet). Keyin "Chig'atoy qabristoni" – Forobiy ko'chasidagi qabriston, "Forobiy qabristoni" deb yuritila boshlangan. Uning asl nomi esa **"Qo'shchi ota"** qabristoni bo'lgan. Ma'lumki, Toshkentda shundoq "ota" nisbasi bilan atalgan bir necha qabriston borligi buning an'ana shaklini olganini ko'rsatadi. Chunonchi, Zangi ota, Oqil ota, Chimir ota, G'oyib ota, Qo'yliq ota, Yalang'och ota...

Endi uzoq tarixga yuz burib, Chig'atoy kim edi, degan savolga javob topishga urinib ko'raylik.

Chig'atoyxon – (tug'ilgan yili noma'lum – 1242), 1224-yildan o'n sakkiz yil davomida Chig'atoy ulusi xoni hisoblangan. Chingizxonning ikkinchi o'g'li. Saltanat qonun-qoidalari, udumlar, xususan, Chingizxon yasosini mutlaq ado etish nazorati unga topshirilgan edi. Mo'g'ullarning bosqinchilik yurishlarida u bir necha jangda Chingizxonga hamsafar bo'lgan. Xitoyga yurishda, Movarounnahrni istilo etishda juda qattiqqo'llik ko'rsatgan. Aka-ukalari Jo'ji va O'qtoylar bilan birgalikda O'torni olishda, Urganchni qamal qilishda qatnashgan. 1221-yilning 25-noyabrida Jaloliddin Manguberdi bilan Sind daryosi bo'yida yuz bergan ayovsiz jangni o'z ko'zi bilan ko'rgan, otasining yonida turgan. Sind daryosidan ot solib o'tib ketgan xorazmshoh Jaloliddinni ta'qib etish, tutib kelishga yuborilgan Chig'atoy 1221-1022-yil qishini Hindistonda o'tkazgan.

1224-yilda Chingizxon o'g'illariga mulk ulashadi. Chig'atoyga ham katta hudud in'om etiladi. Bu haqda muarrix Abulg'oziy shunday ma'lumot beradi: "...Movarounnahrni va Xorazmning ba'zisini, bilodi uyg'ur va Koshg'ar, Badaxshon, Balx, G'aznin to Sind suviga-cha anga(Chig'atoyga – **M.A.**) berib erdi. **Bu aytilgan viloyatning hech qaysisiga o'zi borgan yo'q.** (Ta'kid bizniki – **M.A.**) Ammo dorug'alar qo'yib erdi. O'zi O'gadoyning qatinda erdi". (Abulg'oziy. "Shajarayi turk". T., 1992. 93-bet). Shundan so'ng Movarounnahrni Chig'atoy ulusi deb atay boshladilar.

Chig'atoyning ikki qishki va yozgi o'rdasi bo'lib, har ikkisi ham Ili vodiysida(hozirgi Xitoyning G'ulja shahriga yaqin, Ili viloyati)da edi. Mirzo Ulug'bek shunday yozadi: "Aytadilarki, Chig'atoyxon aysh-u ishrat va ovni juda sevgan. Ko'pincha vaqtini o'sha ishlarga sarf etgan..." (Mirzo Ulug'bek. "To'rt ulus tarixi". T., 1994. 298-bet).

Chingizxon vafotidan(1227) so'ng Chig'atoy biron marta ham janglarda qatnashmagan, Movarounnahrda ham qadam izi bosmagan, ulusni idora qilishni avval Mahmud Yalavochga, keyin esa uning o'g'li Mas'udbekka(1238–1289) topshirish bilan kifoyalangan.

Odatda, har bir shaxs o'zining millat, Vatan, tarix oldidagi buyuk xizmatlari uchun yuksak maqomlarda e'tiborga sazovor bo'ladi, nomi tarix sahifasiga zarhal



XULOSA CHIQARIB YASHAYLIK

harflar bilan bitiladi, sharaflanadi. Chunonchi, Imom Buxoriy, Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Sohibqiron Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur...

Shu o‘rinda haqli savol tug‘iladi: nima uchun Chig‘atoyxon vafotidan buyon salkam sakkiz yuz yil vaqt o‘tayotibdi, uning nomi hali-hanuz O‘zbekiston toponimikasida mavjud? Joylar uning nomi bilan atalgan, uning nomidagi mahallalarda yashaymiz?..

O‘ylab ko‘raylik: Chig‘atoy – Chingizxonning o‘g‘liga, tariximizdagi qaysi xizmatlari uchun shundoq e‘zozu hurmat ko‘rsatilishi kerak? Chingizxonning o‘g‘li ekani uchunmi? Hurmatga sazovor bo‘lish uchun insonda ma‘naviy huquq bo‘lishi lozim.

Bu ayanchli va kulgili bir holdir. Biz bir narsani anglashimiz kerakki, mustamlaka davrida Chig‘atoy nomi Amir Temurni, Temuriylar davridagi madaniy yuksalishni xaspo‘shlash uchun ataylab shunday baland mavqega ko‘tarilgan edi. Bundan, afsuski, millatimiz, adabiyotimiz, tilimizga tajovuz qiladigan, dog‘ tushiradigan noxush salbiy jihatlar ham kelib chiqdi. Bu juda ham achinarli hol.

Gap shundaki, jahonda nafaqat yurtimizdagi joylar, balki yurtning o‘zi, tili, adabiyotini ham **Chig‘atoy** nomi bilan atashadigan bo‘lib qoldilar! Bunga toqat qilib bo‘lmaydi! Turon aholisini ham, turk, o‘zbek emas, bimalol **chig‘atoy**, **chig‘atoylar**, deyish urf tusini oldi.

“Movarounnahr aholisi so‘zlashadigan til esa **chig‘atoy tili** deb nom olgan” – deb yoziladi “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da. (*T.*, 2005. 9-tom. 635-bet). Qanday qilib, Turkistonning rasmiy tili turkiy degan nomi bo‘la turib, “**chig‘atoy**”ga aylanib qoladi? Bu mantiq doirasidan tashqaridadir.

Albatta, **hududni bildiradigan “Chig‘atoy ulusi” atamasi borligi – haqiqat. Ammo Chig‘atoy tili, Chig‘atoy eli, Chig‘atoy adabiyoti deyish mutlaqo noto‘g‘ridir.** Aslida, deyish zarurati bo‘lsa, Chig‘atoy **ulusi** tili, Chig‘atoy **ulusi** eli, Chig‘atoy **ulusi** adabiyoti bo‘lishi kerak. Axir Chingizxonning birinchi o‘g‘li Jo‘ji ulusidagi til nega “Jo‘ji tili”, Oltin O‘rda adabiyoti esa “Jo‘ji adabiyoti” deyilmaydi?.. Biz o‘zimiz istamagan holda, mo‘g‘ul bosqinchisi o‘g‘lini, Vatanimizni g‘orat qilgan hukmdorning nomini astoydil abadiylashtirish bilan shug‘ullanayotirmiz. Bu narsa kishida chuqur taassuf tuyg‘usini uyg‘otadi.

Shuni aytish kerakki, ona tilimizning tarixi va qonuniyatlari, nomlanishi, adabiyotimizni davrlashtirilishi bilan asosan V.V.Radlov, V.V.Bartold, N.Poppe, A.N.Samoylovich, F.Ko‘prulizoda, A.Krimskiy singari va boshqa g‘arblik olimlar shug‘ullanishgan. “**Chig‘atoy tili**”, “**Chig‘atoy eli**”, “**Chig‘atoy adabiyoti**” degan terminlarning paydo bo‘lishi va tomir yoyishida, bunday qarashlarning jahon fanida tarqalishida zikr etilgan, “chetdan kelib bizning tilimizga turli nomlar berishni yaxshi ko‘radigan turkologlar” (yozuvchi P.Qodirov iborasi)ning xizmatlari katta... Masalan, V.V.Bartold shunday yozadi: «Под влиянием блестящего рассвета тюркской литературы в **чагатайском государстве(?)** при Тимуридах этот **восточнотюркский литературный язык (?)** как на Востоке, так и в европейской науке получил название “**чагатайского**”(?!). (*B.B.Бартолд. Сочинения. В том. М., 1968. стр.606.*)

Ya‘ni: “Temuriylar davridagi **chig‘atoy davlatida** (?) barq urib yashnagan turk adabiyoti ta‘sirida bu **sharqiy-turk adabiy tili**(?) Sharqda ham, Yevropa fanida ham “**chig‘atoy**” nomini oldi...” (O‘quvchi yaxshiroq tasavvur etsin uchun olimning so‘zlarini asliyatda keltirdik – **M.A**).

Yana: bu yerda qaysi davlat haqida so‘z ketmoqda, ma‘lum emas. Agar, Chig‘atoy ulusi ko‘zda tutilayotgan bo‘lsa, u XIII asr oxiriga kelib mutloq mavqeyini qo‘ldan boy bergan edi. Nega chig‘atoy davlati deb

atalishi kerak ekan, degan savol ham tug‘iladi. U qaysi davlat edi? Bu davrda yurtimizda hech qanaqa chig‘atoy davlati emas, balki Amir Temur asos solgan Turon saltanati hukm surar edi-ku! Tilimizning o‘z nomi bor, uni sharqiy-turk adabiy tili (bu yasama atama), deb atashga aslo hojat yo‘q.

V.V.Radlov taxminiga ko‘ra ham (“Temur Qutlug‘ va To‘xtamish yorliqlari” maqolasiga qarang) chig‘atoy adabiy tili aslan Sharqdan kelib chiqqan emish. Lekin “Sharq” tushunchasi ma‘nosi o‘zidan ham bepoyonroq bo‘lganidan, olimning taxmini noaniq bo‘lib qoladi. Millatparvar alloma buyuk jadid Abdurauf Fitrat turk tilining ko‘p sho‘balarini o‘rganayotgan Yevropa olimlari izlanishlariga qarab, ranjigannamo deydi: “*Turkiyot bilan mashg‘ul bo‘lg‘an Ovrupa olimlari turk tilining bu qadar ko‘b sho‘balarig‘a ayrilg‘anin ko‘rgach, bularni bir-birlariga yaqinliklari e‘tibori bilan ko‘malarg‘a ajratg‘ali (tasnif qilg‘ali) tirishadurlar...*” (*Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. T., 2006. 117-bet*).

Sharqshunos olim A.N.Samoylovichning “**Chig‘atoy tili**” tarixini olti asrga qanday joylaganini ko‘zdan kechiraylik:

1. Chig‘atoy adabiy tilining oltin davri (XV – XVI asrlar).
2. Chig‘atoy adabiy tilining inqirozi (XVII – XVIII asrlar).
3. Chig‘atoy adabiy tilining qayta jonlanishi (XIX asr va XX asrning boshi).

Bu o‘zbek filologiya fakultetlari uchun 1984-yilda chiqarilgan darslikka kiritilgan. Olimning fikriga ko‘ra, agar XVII – XVIII asrlar chig‘atoy tilining inqirozi bo‘lsa, u holda, XVII asrda yashagan buyuk shoir Boborahim Mashrabning go‘zal she‘riyati qanday yaratildi ekan?.. U inqiroz emas, yuksak parvozni ko‘rsatib turibdi-ku!.

Turkolog olimlar tilimizning ko‘p asrlik rivojlanish pallalari haqida so‘z ochib, uni turli ta‘sirlardan o‘zgarishlarga uchragani haqida fikr yuritadilar. Turli asrlarda yaratilgan asarlardan olingan qiyos uchun keltirilgan quyidagi misollarga e‘tibor bering. Ular tilimizning ikki yuz yillik (1200-1400 yy.) davrini aks etdiradi:

*Biliklik keraklik so‘zin so‘zlayur;
Keraksiz so‘zini ko‘mib kizlayur.
Biliksiz ne aysa ayur uqmatin,
Aning o‘z tili o‘z boshini yeyur...*

Ahmad Yugnakiy. XIII asr boshida yaratilgan “Hibat ul-haqoyiq” dostonidan.

* * *

“Bu kitobni yozgan, toat yo‘linda tizgan, ma‘siyat yobonin kezgan, oz ozuqluq, ko‘p yozuqluq, Raboti O‘g‘izning qozisi Burhon o‘g‘li Nosiruddin”...

“Ulug‘ otlig‘, qutlug‘ zotlig‘, ezgu xulqlig‘, islom yorug‘lig‘, mo‘g‘ul sanilig‘, musulmon dinlig‘, odamiylar inonchi, mo‘minlar quvonchi, himmati adiz, aqli tegiz begimiz Nosiruddin To‘qbug‘adin... iltimos yanglig‘ ishorat bo‘ldi”.

Nosiriddin Rabg‘o‘ziyning 1310-yilda yozilgan “Qisas ul-anbiyo” asaridan.

* * *

*Aningkim, ol enginda meng yaratdi,
Bo‘yi birlan sochini teng yaratdi.*

*Bo‘yung sarvu sanubartek, beling qil,
Vafo qilg‘on kishilarg‘a vafo qil.*

*Muhabbat nori jondin ketmadi hech,
Qo‘lum siym olmangizg‘a yetmadi hech.*

*Soching ming torina ming hur yetmas,
Yuzungnung nurina ming nur yetmas...*

Xorazmiyning 1353-yilda yozilgan “Muhabbatnoma” dostonidan.

* * *

*Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,
Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma.*

*Hijron kechasi charxi falakka yetar; ey moh,
Ohi saharim, xoh inon, xoh inonma...*

Lutfiyning XIV asr oxirlarida yozgan g‘azalidan.

* * *

*Gul tilasa xotiring to‘la tabaq,
Bu “Guliston”dan o‘qi bir varaq.
Gul jamoli bir necha kunda kechar;
Bu “Guliston” doimo ko‘ngil ochar.
Ul ajoyibki g‘aroyib munda bor;
Xusravu Shirin ichinda qanda bor?
Bu latofat bog‘u bo‘stoni durur.
Bulbul mug‘anniyi “Guliston”i durur.*

Sayfi Saroyining 1391-yilda yetmish yoshida yozib tugatgan “Turkiy Guliston” dostonidan.

Bu parchalar bugungi o‘quvchiga ham tiniq tushunarlidir.

“Во второй половине IX/XV в. **чагатайская литература** в лице Мир Али-Шира (род. 844/1440-41 г., ум. в воскресенье 11 джумада II 906/3 января 1504 (xato: 1501) достигла своего апогея” (B.B.Бартолд. Сочинения. В том. М., 1968. стр.608.). Ya‘ni: “IX/XV asrda Mir Ali-Shir (844/1440-41-da tug‘ilgan; 1504 (xato: 1501) yakshanba 11-jumada II 906/3 yanvarda vafot etgan) siymosida **chig‘atoy** adabiyoti o‘zining avj nuqtasiga chiqdi”. Ana xolos!

Yuqoridagi V.V.Bartolddan keltirilgan ikki iqtibos uning “Islom ensiklopediyasi” degan mashhur nashr uchun yozilgan “Chig‘atoy adabiyoti” maqolasidan olindi.

Bir oz tarix: “Islom ensiklopediyasi”ning (The Encyclopedia of Islam) ilk nashrini tayyorlash ishlari 1900-yilda Gollandiyaning Leyden universitetida boshlangan. Unda nemis, golland, fransuz, ingliz olimlari ishtirok etishgan. Natijada 1939-yilda 5 jildidan iborat ensiklopediya uch tilda – nemis, ingliz, fransuz tillarida bir vaqtning o‘zida bosib chiqarilib, butun Yevropaga tarqatilgan. (Yuqorida zikr etilgan maqola ham shu taxlit mashhur bo‘lib ketgan).

1954-yilda ensiklopediyaning 2-nashriga kirishilgan va 2002-yilda oxirgi 11-jild chop etilgan.

1940–1987-yillarda The Encyclopedia of Islam Turkiya xalq maorif vazirligi tashabbusi bilan 15 jild hajmda turk tiliga tarjima etilib nashr qilingan. Biroq ularda Sharqqa (xususan, turk tarixiga) g‘arbcha nuqtayi nazardan qarash yaqqol ko‘rinib turgani, turk madaniyati haqida noto‘g‘ri ma‘lumotlar kirib qolgani jamoatchilikda qattiq e‘tiroz tug‘dirdi. Shundan so‘ng 1983-yilda Turkiya diniy ishlari boshqarmasi tashabbusi bilan 40 jildidan ortiq hajmda mutlaqo yangi ensiklopediya tayyorlashga kirishildi va bosib chiqarildi.

Endi Alisher Navoiyning o‘ziga murojaat etaylik, qani, ulug‘ shoir chig‘atoy tili, chig‘atoy adabiyoti iboralariga qanday munosabatda bo‘lgan ekan?

Shoir “*Lison ut-tayr*” dostonining “Bu kitobda taxallus tag‘yirining uzri” bobida:

*“She‘r san‘atin ki qildum ibtido,
Turk alfozi bila qildum ado”, –*

deydi va chig‘atoy tili bilan yozdim, demaydi.

“*Farhod va Shirin*” dostonidan:

*Agar bir qavm, gar yuz, yo‘qsa mingdur,
Muayyan **turk ulusi** xud meningdur!*

(Davomi 4-betda.)



TARIX SABOQLARIDAN XULOSA CHIQARIB YASHAYLIK

(Davomi. Boshi 2-3-betlarda.)

E'tibor bering: shoir "Chig'atoy ulusi" emas, **Turk ulusi** demoqda!

"Sabayi sayyor" dostonidan:

*O'ngda turkinavoz urub doston,
Qo'zg'olib har navosida Turkiston...*

"Saddi Iskandariy" dostonidan:

*Mug'anniy, kel-u chert turkona soz,
Maqomi "Navo", yo'qsa "Turkiy Hijoz".*

*Navoiyning ash'oridin necha bayt,
Mening hasbi holim topib **turkiy** ayt!*

Hazratga qulluqlar bo'lsin!

Shunisi e'tiborga sazovorki, ulug' vatanparvar shoir Alisher Navoiy o'z asarlarida **"Chig'atoy eli"**, **"Chig'atoy tili"**, **"Chig'atoy adabiyoti"** degan iboralarni mutlaqo qo'llamaydi. Ona tilimiz muam-molariga bag'ishlangan "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida ona tilimizga nisbatan **"Turk eli tili"** atama-sini ishlatadi, **"Chig'atoy tili"** iborasini eslamaydi. Faqat bir joyda – "Mezon ul-avzon" risolasi muqaddi-masida: **"Turk tili bilan qalam surdum"** so'zlaridan keyin... **"chig'atoy lafzi** bila raqam urdum" deydi xo-los. "Navodir un-nihoya" devonida **"Chig'atoy"** so'zi shaxs nomi, "Favoyid ul-kibar" devonida esa qavm nomi sifatida tilga olinadi. Boshqa hech qaysi asarda bu so'z uchramaydi, uchrasa ham etnik atama vazifasi-ni bajaradi xolos.

Ayni paytda ona tilini ifodalaydigan **"turk"** so'ziga shoirning butunlay mehri bo'lakcha. Yana misollarga nazar tashlaylik.

Chunonchi, "Navodir un-nihoya" devonida o'qiy-miz:

*Ey, Navoiy, bir parivash **turkning** majnunimen...*

"Favoyid ul-kibar" devonida:

*Turklarning qulidurmenki, nigorimning erur
Qoshi turkona, qabog'i keng-u ko'zi qiy-moch.*

"Farhod va Shirin" dostonida:

*Ko'ngil bermish so'zumg'a turk jon ham,
Ne yolg'uz turk, balkim turkmon ham.*

"Sab'ayi sayyor" dostonida:

*Dahr aro shoh chu turk voqe'dur,
El aro turk lafzi shoye'dur.*

"Lison ut-tayr" dostonidan:

*Chun toptim ul kalom ichra kamol,
Turk alfozi bila surdum maqol.
Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yaqqalam!*

*Menki, turk alfoziga aylab shuru',
Nazm topti ta'bu kilkimdin vuqu...*

Navoiy o'z tili bilan ana shunday faxrlanadi, asar-larida bu mavzuga qayta-qayta murojaat etadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Andijon shahrini ta'riflar ekan: *"Eli turkdur. Shahri va bozorisida tur-kiy bilmas kishi yo'qtur. Elining lafzi qalam bila rosttur. Mir Alisher Navoiyning musannafoti, bovujudkim Hiri-*

da nash'u namo topibtur, bu til biladur", deb guvohlik beradi(Zahiriddin Muhammad Bobur."Boburnoma", T., 2002. 34-bet) va bu bilan Turon yurtida *turk tili adabiy til ekanini*(Ta'kid bizniki – M.A.) isbotlaydi, "chig'atoy tili" iborasi haqida esa, tabiiyki, lom-mim demaydi. Yana Alisher Navoiy haqida "Boburnoma"da aytilgan so'zlarga ham diqqatni qarataylik: *"Alisherbek naziri yo'q kishi erdi. Turkiy til bila to she'r aytibdur-lar, hech kim oncha ko'b va xo'b aytqon emas..."*(O'sha kitob. 132-bet.)

Bunda ham chig'atoy tili haqida imo-ishora ham yo'q... Shundoq ekan, Alisher Navoiy qandoq qilib "chig'atoy" shoiri(chagtayskiy poet) bo'lsin? Chig'atoy adabiyotini rivojlantirsin?

O'zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirov "Adabiy tilimizning oltin ko'prigi" maqolasida xuddi shu mavzu – chig'atoy tili, chig'atoy adabiyoti haqida juda o'rinli fikrlarni o'rta-ga tashlaydi. Jumladan, adib yozadi:

"Amir Temur 1370-yili Markaziy Osiyoda davlat te-pasiga kelgandan keyin Chig'atoy avlodlari bu hudud-dan quvilgan, Movarounnahr yana qadimiy nomi bilan Turon va Turkiston deb atala boshlagan edi. Chig'atoy ismi endi faqat turkiylashgan bir mo'g'ul urug'ining oti yoki "Chig'atoytepa", "Chig'atoy qabristoni" kabi joy nomlari sifatida saqlanib qolgan edi. Shunga qaramay, sun'iy yasalgan "chig'atoy tili" tushunchasini Alisher Navoiy va Bobur Mirzo tiliga nisbatan ham tatbiq etish, yana bu soxta atama tarixini XX asrgacha cho'zib ke-lish ilm-fanga emas, faqat qaram qilingan xalqlarning yuksak madaniyatini kamsitishga xizmat qiladigan g'ayriilmiy bir siyosat edi. Afsuski, ayrim o'zbek olim-lari til tarixiga oid kitoblarida "chig'atoy tili" iborasi mohiyatiga e'tibor bermay keladilar.

Universitetlarning filologiya fakultetlari uchun o'quv qo'llanma sifatida 1994-yilda nashr etilgan ki-tobda shunday satrlar bor:

"Turkshunoslikda ba'zan *chig'atoy adabiyoti* va *chig'atoy tili*, chig'atoy turkiysi atamalari uchraydi. Bu o'rindagi chig'atoy adabiyoti atamasini o'zbek mumtoz adabiyoti deb tushunmoq kerak. Chig'atoy tili atamasi esa eski o'zbek adabiy tilini anglatadi".

Bu ma'lumotni talabalar ongiga o'quv qo'llan-ma orqali yetkazib berayotgan tilshunos olimlari-miz bir lahza o'ylab ko'rmaydilarki, Chig'atoy o'zi kim bo'lganki, butun bir adabiy tilni, hatto Alisher Navoiy davridagi mumtoz adabiyotni "Chig'atoy tili", "Chig'atoy adabiyoti" deb atash kerak?"

Shu yerda bir jihatni aytib o'tish zarur. Adabi-yotshunos, tilshunos olimlarimiz orasida, go'yoki "Chig'atoy tili", "Chig'atoy adabiyoti" singari ata-malar XIII asrdan boshlab mavjud degan qarashlar-ni olg'a surguvchilar ham uchrab turadi. Bu asossiz da'volardan o'zga narsa emas. Tarixga nazar solinsa, mo'g'ullar bosqini tufayli, yurtimiz "Chig'atoy ulu-si" deb atala boshlangandan keyin mustamlaka yurtda adabiyot so'nib ketganini ko'ramiz, zero XIII asrda adabiyotimizda biron-bir ko'zga ko'rinarli asar yaratil-gani yo'q. Rabg'o'ziyning "Qisas ul-anbiyo" asari 1310-yilda, Xorazmiyning "Muhabbatnoma" dostoni 1353-yilda – bular endi XIV asr bo'ladi – yaratildi. Amir Temur yurt boshiga kelganidan so'nggina adabi-yotning, ilm-fanning rivojlanishi uchun imkoniyatlar paydo bo'ldi, bu jumla jahonga ma'lum.

Afsuslanarli joyi shundaki, jahonda o'zbek ada-biyotini Chig'atoy adabiyoti deb tushunish ha-li-hanuz davom etmoqda. Masalan, yaqinda Boku-da ozarboyjonlik adabiyotshunos Almaz Ulvining ozarboyjon-o'zbek adabiy aloqalariga bag'ishlangan "Ozarboyjon-o'zbek(*chig'atoy*) adabiy aloqalari" monografiyasi bosilib chiqdi("Kitob dunyosi" gaze-tasida 2014-yil 10-sentabr sonida shu kitobga yozil-

gan taqrizga hamda "Sharq Yulduzi" jurnali 2014-yil 4-sondagi Xolid Saidga bag'ishlangan maqolaga qa-ralsin). Monografiyada olimi ikki adabiyot o'rtasi-dagi ijodiy aloqalarga batafsil to'xtaladi. Yaxshiroq tasavvur etishi uchun kitobdagi boblar, fasllar nomla-rini keltirib o'taylik: "Ozarboyjon-*chig'atoy*(o'zbek) adabiy aloqalarining shakllanish davri", "XVI – XIX asrlar *chig'atoy*(o'zbek) poeziyasi va adabiy mushtarak mayllar", "XX asr *chig'atoy*(o'zbek) adabiyoti va "Mulla Nasriddin" jurnali(Sharq satira maktabi va ja-did *chig'atoy*(o'zbek) she'riyati", "O'zbek(*chig'atoy*) she'riyati ozarboyjon tilida", "**Chig'atoy**(o'zbek) nasrining ilk davri"... "O'zbek" so'zi tushuntirish, izoh uchungina qavsda berilmoqda, adabiyotimiz esa "Chig'atoy adabiyoti" sifatida talqin qilinmoqda. Af-tidan, gazetaga ham, jurnal tahririyatiga ham, maqola muallifiga ham bunday talqin maqbul ko'rinadi she-killi, chunki ular tomonidan hech qanday munosabat bildirilmaydi. Izohning hojati bo'lmasa kerak. Bu ah-volni ko'rib, kitob muallifi o'zi yoritayotgan mavzuni chuqurroq o'rganib ulgurmagan ekan, degan xayolga boradi kishi. Taassufli joyi, bu kitobni o'qigan ozarboy-jonlik o'quvchilarda **O'zbek**(chig'atoy emas!)adabiyoti haqida noto'g'ri tasavvur paydo bo'lishi mumkin.

Shubhasiz, ozarboyjonlik zahmatkash olimi Almaz Ulvi xonimning o'zbek adabiyotini ushbu mamlakatda va dunyoda targ'ib qilish hamda ikki qardosh mam-lakat ilmiy doiralari o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish borasidagi xizmatlarini behad qadrlaymiz. Faqatgina u kishi kelgusida yuqorida tilga olingan masalalarga e'ti-bor qaratlsa, ayni muddao bo'lar edi.

Tariximizga, umuman turk tarixiga noxolis, nopisand, goho ochiqdan ochiq g'araz bilan yondashish tendensiyasini, afsuski, har qadamda sezib turamiz. Bir misol. Sohibqiron Amir Temur nomining turlicha beri-lishiga diqqatni qarataylik. Ollohning bandasiga bitta ism beriladi. Ammo buyuk bobomizning nomi Temur-bek bo'lgani holda uni jahon rasmiy nashrlarida(en-siklopediyalar, lug'atlar va h.k.) turlicha, chunonchi, Taymur, Timur-lenk, Timur, Tamburleyn, Tamerlan qabilida yozilishiga nima deyish kerak? Mashhur siy-molarning birontasi taqdirida bunday munosabatni uchratmaymiz.

Mustaqilligimiz tufayli, ahvol mutlaqo o'zgarib bo-rayotgani kunday ravshan. Buyuk bobomiz haqidagi haqiqat yuzaga chiqdi, buni jumla jahon tan olmoqda. Moskvada nashr etiladigan "Hayka и жизнь" jurnali, "Аргументы и факты" gazetasi hozir O'zbekistonda Sohibqiron nomini "Amir Temur" deb yozish qabul qilinganini e'tirof etib maqolalar e'lon qildi.

2026-yil 9-10-aprel kunlari O'zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazida bo'lib o'tgan Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligiga bag'ishlan-gan katta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda ham Amir Temur ismini identifikatsiyalash masalasi ko'rilgani quvonarli hol bo'ldi.

Tarix saboqlarini unutmaylik. Adabiy jamoat-chiligimiz, adabiyotshunos, tilshunos, tarixshunos olimlarimizning chig'atoy tili, chig'atoy adabiyoti degan o'ylab chiqarilgan, sun'iy terminlarni ko'rib chiqishlari, isloh qilishlari zamon talabi bo'lib qolmoqda. Bunda chig'atoy tili emas, *eski o'zbek tili*, chig'atoy adabiyoti emas, *o'zbek mumtoz adabiyoti* (bu termin keyingi paytlarda izchil qo'llanayotgani quvonchli) terminlarini mustahkam muomalaga kiri-tish lozim. Bari uchun o'zimiz kuyib-yonishimiz, o'zimiz ado etishimiz kerak. Bunday qadam xalqimiz-ga, ayniqsa, yosh avlodga tariximizni chuqur anglash-da qo'l kelishi shubhasiz.

Muhammad ALI,
O'zbekiston xalq yozuvchisi,
professor

Og'riq

O'zbekistonda har kuni o'rtacha 5 mingdan ortiq yangi faol kredit shartnomasi qo'shiladi. Bu raqam quruq statistika emas, uning ortida birovning uyi, birovning davolanishi, yana birovning ro'zg'ori turibdi. Shuningdek, uning ichida bosh qotirishimiz zarur bo'lgan yana bir masala bor: to'y uchun olingan qarz. Ha, odamlar qo'lida yo'q pulni mehmon uchun sarflaydi, obro' uchun ishlatadi, "kam bo'lib qolmasin" degan xavotir uchun tikadi. Ertasi kuni esa marosimlar yakunlanadi, dabdabali zallar bo'shaydi, gullar so'liydi, kuy-qo'shiq tinadi, faqat qarz qoladi. Va u eng uzoq qoladigan "mehmon" bo'lib chiqadi.

KREDITGA OLINGAN OBRO'

O'zbekistonda to'y va qarz fenomeni

Boshqalarga qarab yashash kerakmi?

Jamiyatimizda juda xavfli bir holat ildiz otib bormoqda. Aksariyat odamlar endi o'z ehtiyoji, daromadi va imkoniyatiga yarasha emas, boshqalarning hayotiga qarab yashay boshladi. Kimningdir katta to'y qilgani ovoza bo'lsa, boshqasi ham undan kam bo'lmaslik dardiga tushadi. Kimningdir qimmat buyum olganini ko'rib, yana kimdir o'zini orqada qolgandek his qiladi. Shu tariqa insonning qarori uning ichki ehtiyojidan emas, atrof-muhit ta'sirida tug'iladi. Bu holat ilmda ijtimoiy taqqoslash bosimi deb ataladi. Ya'ni odam o'zini o'zi bilan emas, boshqalar bilan o'lday boshlaydi.

Bu qarash dastlab ko'zga unchalik tashlanmaydi. Go'yo inson o'zi xohlagan narsani tanlayotgandek ko'rinadi. Aslida esa tanlov erkin emas. Unga boshqalarning turmushi, dabdabasi, ko'rinishi, gap-so'zi ta'sir qilgan bo'ladi. Inson o'ziga kerak bo'lgani uchun emas, boshqalardan kam ko'rinib qolmaslik uchun xarajat qiladi. Eng yomoni, bu bosim odamni asta-sekin qarzga yaqinlashtiradi. Chunki daromad yetmasa ham, havas to'xtamaydi. Imkoniyat kam bo'lsa ham, taqqoslash susaymaydi. Natijada kredit vosita emas, ko'rinishni saqlab qolishning sun'iy yo'liga aylanadi.

Ayniqsa to'y masalasida bu holat juda yaqqol seziladi. Chunki bizda to'y faqat ikki yoshning shaxsiy quvonchi emas, ko'pincha butun elga ko'rsatiladigan voqea sifatida tasavvur qilinadi. Kimning zali kattaroq, kimning dasturxon to'laroq, kimning to'yida san'atkorlar ko'proq, kimning to'yi ovoza bo'ldi degan yashirin poyga bor. Shu poygada ko'p oilalar o'z imkoniyatini emas, boshqalarning gap-so'zini o'lchov qilib oladi. Shunda to'y — oila quvonchidan ko'ra ko'proq, obro' olish vositasiga aylanib qoladi. Kredit esa mana shu bosimni vaqtincha yopib turadigan niqob bo'lib xizmat qiladi.

Psixologlar bu holatni "present bias (hozirni afzal ko'rish)" deb ataydi. Inson miyasi ertangi og'riqni bugungi quvonchdan kichikroq ko'rsatadi. To'y rejalashtirish aynan shu mexanizm uchun ideal vaziyat yaratadi: emosional bosim yuqori, qaror qabul qilish muddati qisqa, "bir marta bo'ladi" argumenti mantiqan o'rinli ko'rinadi. Miyaning hisob-kitob qiluvchi qismi o'chadi, hissiyotlarni boshqaruvchi qism ustun keladi. Ya'ni kredit olayotgan paytda miya sizni biologik darajada aldaydi — bu irodasizlik emas, neyrologik qonuniyatdir. Lekin neyrologik qonuniyat bank foizini hisobga olmaydi.

Bu faqat bizda

Dunyoning ko'p joyida to'y ikki inson hayotidagi muhim kun sifatida qabul qilinadi. Bizda esa u ko'pincha bundan ham kattaroq ma'noga ega. To'y faqat quvonch emas, u qarindosh-urug' oldidagi yuz, mahalla oldidagi

mavqe, el ichidagi obro' o'lchoviga aylanib qolgan. Shu sabab boshqa xalqlarda to'y uchun qarz olish noo'rin moliyaviy qaror deb qaralsa, bizda u asta-sekin odatiy hol bo'lib bormoqda.

Bugun bu bosim yanada keskinlashganining sababi shundaki, eski ijtimoiy odatga yangi davr madaniyati ko'rinishlari qo'shildi. Oldin odamlar asosan qarindosh-urug', qo'ni-qo'shni va mahalla oldida "uyalar edi" va bu doira ko'pi bilan 50–100 kishi edi. Bugun esa Instagram va TikTok bu doirani minglab, hatto o'n minglab barobar kengaytirdi. Instagramdagi dabdabali to'ylar, bezatilgan zallar, qimmat liboslar va ko'z-ko'z qilingan marosimlar ko'pchilik uchun yangi yashirin me'yorga aylanib bormoqda. "Kimniki zo'rroq" raqobati endi mahalla ichidan chiqib, virtual kenglikka o'tdi. Ustiga ustak kredit, bo'lib to'lash va tezkor qarz olish imkoniyatlari ham osonlashdi. Natijada eski mental bosim bilan yangi moliyaviy vositalar qo'shib, to'y uchun qarz olishni yanada odatiy va xavfli holga aylantirdi.

Eng achinarlisi shundaki, ko'pchilik buni muammolini ham sezmaydi. "Bir marta bo'ladi" degan jumla bilan ortiqcha sarf oqlanadi. "El qatori qilaylik" degan qarash bilan imkoniyatdan tashqari xarajat qilinadi. "Odamlar nima deydi" degan xavotir bilan oilalar yillar davomida



to'lanadigan qarzga botadi. Bir kunlik dabdaba uchun uzoq muddatli bosim sotib olinadi.

Raqamlar ogohlantiradi

Bugun bu muammo alohida bir oilada emas, keng ko'lamda ko'rinmoqda. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil boshida faol kredit shartnomalari soni 5,6 million bo'lgan bo'lsa, 2025-yil 1-yanvar holatiga kelib bu ko'rsatkich 7,5 millionga yetgan. Bu bir yil ichida qariyb 1,9 milliontaga oshish degani. Hisob-kitob qilinsa, mamlakatda har kuni o'rtacha 5 mingdan ortiq yangi faol kredit yukining izi paydo bo'lgan. Shu raqamning o'ziyoq kredit oddiy moliyaviy vositadan kundalik turmushning odatiy qismiga aylanib borayotganini ko'rsatadi.

To'y masalasida esa raqamlar yanada og'irroq manzarani ochadi. "Yuksalish" harakati o'tkazgan so'rovga ko'ra, respondentlarning 25,1 foizi to'y xarajatlarini qoplash uchun kredit olganini yoki olishni rejalashtirganini bildirgan. So'rov ishtirokchilarining 65,2 foizi esa to'yga 50 milliondan 100 million so'mgacha yoki undan ham ko'proq mablag' sarflanishini aytgan. Bu ko'p oilalar uchun to'y endi shunchaki marosim emas, jiddiy moliyaviy bosim manbayiga aylanganini anglatadi.

Demak, raqamlar muammosi faqat kredit olishda emas, uning qayerga va nima uchun sarflanayotganida ekanligini ham ko'rsatmoqda. Agar bir kunlik marosim uchun yillab to'lanadigan qarz olinayotgan bo'lsa, bu endi shaxsiy tanlov emas, jamiyatni o'ylantirishi kerak bo'lgan ijtimoiy hodisadir.

Pushaymon

Dilnoza, 36 yosh:

— Biz sunnat to'yi qilamiz deganimizda avvaliga hammasi oddiy tuyulgandi. Bola bir marta sunnat bo'ladi, el qatori qilaylik, dedik. Xolalarni chaqirish kerak bo'ldi,

qo'ni-qo'shni aytish kerak bo'ldi, qarindosh-urug' norozi bo'lib qolmasin, dedik. Odamlar orasida kam bo'lib qolmaylik, dedik. Oxiri kredit olishga majbur bo'ldik. O'sha paytda bu qaror yomon ko'rinmagan. To'y o'tib ketsin, keyin bir amallaymiz, har oy bo'lib to'laymiz, sekin yopamiz, deb o'ylaganmiz. O'sha kuni qarasam, hamma xursand. Mehmonlar kelgan, dasturxon yozilgan, bola ham chiroyli kiyingan. Tashqaridan qaraganda hammasi joyida edi.

Lekin to'y tugagandan keyin hammasi boshqacha bilinarkan. Har oy to'lov kelaveradi. Uy-ro'zg'or, bolalar, kundalik xarajatlardan orttirib, kreditga ajratish qiyin ekan. Ba'zan erim bilan o'tirib, shuncha odamni chaqirmasak, shuncha xarajat qilmasak ham bo'lardi, deb qolamiz. Eng alam qiladigani, o'sha paytda kerakdek ko'ringan narsalarning ko'pi aslida shart emas ekan. Odam to'y payti buni bilmaydi. Ko'pchilikni o'ylaydi, gap bo'lmasin, boshqalarnikidan kam bo'lmasin deydi. Keyin esa o'sha bir kunlik obro'ning pulini oyma oy o'zi to'laydi. Men hozir tushunaman, to'y chiroyli o'tgan bo'lishi mumkin, lekin uning og'irligi keyin oilaning moddiyatiga, tinchligiga zarar qilarkan.

Mutaxassislar ogohlantiradi

Iqtisodchi Otabek Bakirovning aytishicha, bugun odamni qarzga undayotgan narsa faqat pulga ehtiyoj emas, kreditning jozibali qilib ko'rsatilishidir. "5 daqiqa kredit oling", "tez va oson", "bo'lib to'lash qulay", "oyiga atigi ... so'm", "daromadsiz ham olish mumkin" kabi iboralar qarzni yengil va bexatar narsadek ko'rsatadi. Odam ana shunday paytda tovar yoki marosimning haqiqiy narxini emas, faqat bugungi qulay ko'rinishini ko'radi. To'y uchun kredit olayotgan oilalar ham ko'pincha shu aldovga ishonadi. Bakirov bunday xabarlar hatto sog'lom odamlarni ham chalg'itishini, bu esa o'z-o'zidan manipulyatsiya ekanini ta'kidlaydi.

Psixolog Hulkan Yusupovning fikricha, to'y oldidan odam mantiq bilan emas, his-tuyg'u bilan qaror qiladi. "O'sha paytda odam xarajatni emas, "odamlar nima deydi?" degan savolni o'ylaydi. Kredit ham o'sha lahzada to'siq bo'lib ko'rinmaydi" deydi u.

Bundan tashqari, raqamli savodxonlik masalasi ham bor. Instagram va TikTokda ko'rsatiladigan to'ylar faqat ko'rinish, uning ortidagi moliyaviy reallik ko'rinmaydi. Kuzatuvchilar "hamma shunday qiladi" deb o'ylaydi, aslida ko'rsatish boshqa, ko'tara olish boshqa. Achinarlisi esa his-tuyg'u o'tadi, to'lov qoladi.

Sotsiolog Dilshod Nazarovning aytishicha, bu muammo faqat O'zbekistonga xos emas. Janubiy Koreya va Hindistonda ham to'y xarajatlarini cheklash borasida tizimli yechimlar ishlab chiqilgan. Qiziq tomoni shundaki, O'zbekistonda ham bunday mexanizm mavjud. 2019-yili Oliy Majlis palatalari kengashlarining qo'shma qaroriga muvofiq, to'ylarda mehmonlar soni 200 nafargacha etib belgilangan, dabdababozlik va isrofgarchilikka yo'l qo'y-maslik qonuniy talab sifatida belgilangan.

Zamonaviy yechim

Biz farzandlarimizga maktabda uchburchak yuzasini hisoblashni o'rgatamiz. Lekin kredit foizi, murakkab foiz, qarz tuzog'ini o'rgatmaymiz. "Isrof qilmang" kabi quruq nasihatlar o'tmishda ham ishlamagan, kelajakda ham ishlamaydi, chunki muammo axloqiy emas, tuzilmaviy hisoblanadi. Odam "isrof" ekanini biladi, lekin ijtimoiy narxi (atrofdagi odamlarning muhokamasi, obro' ilinji) uni to'xtatishdan kattaroq ko'rinadi. Jahon bankining 2023-yilgi hisobotiga ko'ra, moliyaviy savodxonlik bo'yicha o'qitilgan yoshlar impulsiv qarz olish ehtimolini sezilarli darajada kamaytirgan. O'zbekiston maktab dasturida esa moliyaviy savodxonlik hali majburiy fan ham emas. Balki eng katta yechim aynan mana shu oddiy bo'shliqda yashiringan.

Birinchilardan bo'lib, 8-9-sinf o'quvchilari uchun tizimli moliyaviy ta'limni joriy qilish kerak, ya'ni o'quvchilar kredit foizi, qarz tuzog'i, to'lov jadvalini hisoblashni o'rganishi kerak.

Keyingi qadam — qonun ijrosini kuchaytirish lozim. 2019-yilgi qaror cheklavlari ishlashi uchun to'yxona litsenziyalariga bog'liq nazorat tizimi, aniq jarima shkalasi va mahalla faollarini jalb qiluvchi mexanizm ishlab chiqilishi kerak.

Oilalarga to'y xarajatlarini oldindan ko'ra oladigan, mehmonlar ro'yxatini tartibga soladigan, to'yona va sovg'alarni nazorat qilish imkonini beradigan YorYor kabi platformalardan foydalanishni ommalashtirish ham katta yordam beradi. Ammo bu faqat qo'shimcha vosita, asosiy yechim emas.

Zayniddin PO'LATOV,
UrDU talabasi



Hayot mushohadalari



Maktabning vazifasi faqat ta'lim bilan cheklanishi biryoqlama natijaga olib keladi. Tarbiyani uyg'unlashtirish degan gap ham mujmaldir. Ta'lim va tarbiyaning maqsadi aniq shaklda belgilab olinishi shart. Bola ertaga katta odam bo'ladi. Bola ertaga xonadonning, sulolaning, pirovardida, jamiyatning egasiga aylanadi. Bola hayot maydonida qanday harakat qilishni bilishi kerak.

Yaxshi va yomonni, oq va qorani, past va balandni ajrata olishi kerak. Olamda yovuz, ayyor, soxta, qat'iyatsiz kaslar borligini bilishi lozim. Nafs va shaytondan keladigan yomonliklardan ogoh bo'lmog'i shart. Ko'ngilni og'ritmaslikni, sadoqatni, tafakkur va tadabburni, jasorat va qo'rqqmaslikni o'rganishi dardkor. Bolaning qo'liga hayotning xaritasi berilishi, undan qanday qilib foydalanish o'rgatilishi kerak.

Bolaning yarim kuni maktabda kechadi. Butun koinotdagi tillolardan qimmat vaqti maktabda o'tadi. Ammo u maktabni bitirganida hayot haqida hech narsa bilmaydigan bo'yi baland, ovozi do'rillagan bir zehniyat sifatida namoyon bo'ladi. Eng qizig'i, u maktabni bitirganda murosas, hikmat, vazminlik, mas'uliyat, ishlarning oqibati haqida o'ylay olmasligi uning hunarsiz va dangasa, betgachopar va o'yinqaroq ekanligi bilan proporsional keladi. Yana u durustgina yolg'onchi, durustgina makkor hamdir. Maktab faqat ta'lim bersa, hatto tarbiyani bersa ham maqsad hosil bo'lmaydi. Maktab ODAM yetishtirib bersin. Harflar, raqamlar yoki formulalar, voqealar yoki yillarni yodlagan vunderkind emas, balki ODAM ulg'aytirsin. Bu odam hayotda yashash nima ekani haqida, hech yo'qsa, dastlabki ma'lumotlarning egasi bo'lsin. Qo'lida 3-4 ta hunar bo'lsin. 18 yosh bu go'daklik emas, harqalay. Aks holda, maktablar o'z vazifasini bajara olmaydigan, shunchaki, bola umrini isrof etuvchi, uning 11 yilini tutqunlikda ushlab turuvchi joy bo'lib qolaveradi.

Shu o'rinda yana bir mulohaza. Yangi O'zbekiston chin ma'noda yangidir. Unda yangi deb atasa bo'ladigan sanoqsiz yangiliklar bor, ularning ayrimlari shu qadar tezlik bilan hayotimizga kirib joylashmoqdaki, ko'zimiz ilg'amay qolmoqda, lekin biz ziyrak bo'lib, har bir yangilikni ushlab olishimiz, tahlil qilishimiz, bizga qanchalik va qanday ta'sir qilishini bilishimiz kerak, ya'ni bu yangilik oqibatida biz nima topamiz va nima yo'qotamiz degan masalani hamisha ko'z o'ngimizda tutmog'imiz lozim, aks holda, yangiliklar to'liqini bizni va avlodlarimizni tasavvur ham qila olmaydiganimiz joylarga olib ketishi hech gap emas. O'sha yangiliklardan biri xususiy maktablardir. Ehtimol, aksarimiz xususiy maktablarga ijobiy nigoh bilan qarasak, ajab emas, bolalarimiz yaxshi maktabda o'qisa, ulg'aysa, yetuk bo'lsa deb orzu qilamiz, so'ralgan mablag'ni berishga shaymiz. Lekin masalaning juda nozik bir nuqtasi bor. Bu xususiy maktab bolaning necha soat vaqtini band qilmoqda degan savol bilan anglandigan nuqtadir.



Maktabning

Bilishimizcha, xususiy maktab ertalabki soat 08:00 dan kechki soat 18:00 gacha bolani band qiladi. Shunchaki, bolaning ota-onasi ham bolaga yetarlicha vaqt ajrata oladimi?..

Maktab ixtiyoridagi bola ota-onadan olishi mumkin bo'lgan oilaviy qadriyatlar, ota-ona ibratini va imon-e'tiqodga oid saboqlardan mahrum bo'lib qolmaydimi?.. Savol shu.

Maktab ilm va tarbiya bersin, aytilganidek, kasb-u hunar ham bersin deylik, lekin oilada erkak va ayolning o'rni qanday bo'ladi, ota oilani qanday boshqarishi kerak, ayol erga qanday itoat etishi lozim, ota-onaga bola qanday bo'ysunishi va ularni qanday shaklda ehtirom qilishi kerakligi haqidagi ulkan tahsil qanday va qayerdan olinadi?..

Aslida, bugun oilalarning chinakam oila mohiyatidan yiroqligi sababi shu mahrumlik ila bog'liq: ota-ona ertadan kechgacha ishda, bola esa qarovsiz; natijada, ulg'ayganda na o'g'illar otalikni, na qizlar onalikni bilyapti. Bolani ovutish, tagini tozalash, emizish, ro'zg'or tutish haqida ham onadan o'rganmagan qiz ona bo'lganda dovdorab qiyin ahvolga tushmoqda.

Holbuki, bu hali xususiy maktablar ommalashmagan, deyarli hamma davlat maktablarida o'qigan avlodning ahvoli. Endi xususiy maktablar qanday ota-onalarni bizga yetishtirib beradi? Xususiy maktablar inson fitratiga xos va mos oila tuzadigan ota-onalarni ulg'aytiradimi?..

Mayli, deylik, bola 15 yoshga to'lganida ota-onalik ilmi maktabda beriladi. Lekin tabiiy sharoitda ibrat va taqlid orqali olinmagan bu ko'nikma naqadar ish beradi? Naqadar samarali bo'ladi?..

Bugun biz ortidan harsillab chopayotgan g'arb oila inqiroziga uchragani rad etib bo'lmaz haqiqat. Ularning kitoblari bizning zehniyat va sharoitga foyda qiladigan zarracha ham yechim va to'g'ri yondashuvni taqdim eta olmasligini tushunishimiz kerak. Shart.

Oilalarning bizni kutib turgan ulkan halokatdir. Maktablarda o'rnatilgan tizim ham bu halokatni yuzaga keltiruvchi bir omildir. Bundan keyin har bir oila farzandlari bilan bir davrada yetarlicha bo'lish muammosini yechishga urinishi kerak. Onaning butun vaqti bolalar uchun sarflanishi bu borada eng ko'p talab etiladigan shifodir. Ya'ni ona butun vaqtini faqat bolalariga ajratishi lozim va lobuddir, shu bilangina o'z oilamizning yemirilib ketishini, sulolamiz axloqiy tanazzulga uchrashini, nasllarimiz qadriyatsiz qolishini to'xtatgan bo'lamiz.

Bolalarimiz uchun ajratadigan vaqtimiz bo'lishi shart. Bolalarni xususiy jannatmisol qamoqlarga asir qilishdan oldin tafakkur qilishga vaqt topaylik.

*Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulg'a tikandek oshiyon bo'lmas emish.*

TAG'OFUL

Ulug'larning shunday o'giti bor: "Komil xulqlarni o'n qismga bo'lsak, to'qqiz qismi tag'ofuldan iborat".

Tag'oful – bilib-bilmaslikka olmoqdir. Ya'ni atrofdagi insonlarning xatolari, johilona xatti-harakatlarini ko'rib, ko'rmaslikka, bilib, bilmaslikka olasiz. Ulardan ko'z yumasiz. Buning bir qancha sabablari bor. Ayrimlarini keltiramiz:

1. Insonga xatosini aytsangiz, hamiha ham uni to'g'irlamaydi, balki o'rtada noqulay vaziyat yuzaga keladi.

2. Xato johillikdan yoki ojizlikdan sodir bo'layotgan bo'lishi mumkin. Johillik, ya'ni bilmaslik sabab-



li qilingan xato ilm bilan barham topadi. Ojizlik bu o'zini idora qila olmaslik, g'azab yoki hissiyotga yengilishdir. Insonlarning hammasi ham g'azab va hissiyotni yengishga qodir emas. Demak, bu yerda muolaja g'azab va hissiyotni yengishga yetadigan ichki bir quvvat hosil qilishdir. Bunday quvvati yo'q odamga dakki berish ayni paytda to'g'ri bo'lmaydi.

3. Inson nasihatni qabul qilmog'i uchun ikki holat yuzaga chiqishi kerak: 1) nasihatga muhtojning qalbi erib, nafsini siniq holda bo'lishi kerak, shunda uning qulog'iga gap kiradi, o'ylaydi; 2) nasihat qiluvchi kuchli ta'sir sohibi bo'lmog'i shart, u nasihat qilishning eng to'g'ri va qulay usullarini qo'llashda mohir bo'lsin. Shunda nasihat meva beradi, yo'qsa, so'zlar behuda ketadi.

4. Ayrim insonlar mutlaqo johil va maraz bo'lib, ular muqaddasotlarni mensimaydilar, shul bois ularga hech qachon ma'noli so'z aytilmaydi; mol va eshakka "chuh" hamda "ishshsh" yoki "ixxx" degan so'zlar kifoya qilganidek, unga u biladigan lug'atda gapiriladi. Imkon bo'lishi bilan bunday marazlardan qochib, uzoqlashiladi.

5. Nasihat uzun so'zlar bilan emas, mehr va muhabbat, amal va ibrat bilan ko'proq hosil beradi. Kimnidir tuzatishni istagan shaxs o'sha odamga mehr berishi, uni kechirishi va xatosini o'zi anglashi uchun vaqt berishi lozim. Yo Haq, ajabmas, natija bo'lsa.

Har bir yaxshi narsa sabr ortidan keladi. Johillarga sabr sizni ham, ularni ham ko'p ovoragarchilikdan xalos etadi: siz so'zni isrof qilmaysiz; u sizga e'tiroz bildirmaydi.

Darvoqe, dilingizni og'riqlardan, kayfiyatingizni tushib ketishdan saqlayman desangiz, harakat qiling: sizni xafa qiladigan joydan, odamlardan chin qalbdan uzoqqa keting; sizni ranjitadigan so'zlar aytilmasligi uchun intiling; eng asosiysi, yomon o'ylarni haydab yuboring. O'zingiz uchun sokin va xotirjam muhit hosil qiling.

Shoyad, shunda axloqimiz himoyalansa; sihatimiz omon qolsa; ko'ngillar qon, o'zimiz xafaqon bo'lmasak; aks holda, quvvatimiz ketadi, bahosiz daqiqa va nafaslarimizni foydasiz janjal, dilxiralik va qayg'uga sarflab yuboramiz.

G'iybat, o'zgalar hayoti, ishi, gunohi, savobi, yutuq va mag'lubiyatlari suhbatimizni kirlamasa, nur ustiga nur bo'lur edi. O'z hayotimiz shu qadar tartibli bo'lib qoldimiki, boshqalarni muhokama aylasak?!

SUYANCHIQ

Yiqilganingda tur deydigan odaming bormi? Qayg'u seni egallab olganida hammasi yaxshi bo'ladi deyadigan-chi? Seni zulmatlardan chiqarish uchun chin dildan kurashadigan kimdir mavjudmi hayoting sahrasida? Bayramlarda osh yeydigan; birga qahva ichadigan; ishi tushsa yo'qlaydigan; qarz so'raydigan, yordamlarindan ishtaha ila istifoda qiladiganlar emas, sen uchun g'am chekadigan, hamdard bo'ladigan hech kas bormi?.. Katta ehtimol bilan YO'Q degan javob aytasan. Chuqurroq o'ylasang, shafqatsiz javob shu.

tabiiy vazifasi

Bor deb o'ylayapsanmi? Borlarning iz qoldirmay ketishlariga hayotning o'zi guvoh qiladi seni.

Shul bois, atrofingni to'ldirgan shishadoshlaringga ishonma, ya'ni ularga suyanaman deb o'ylama. Sen-ga suyanishlariga izn berishing mumkin, lekin ularga suyanma. Suyanma, yiqilib tushasan. Tutib qoladigan odaming yo'q bu olamda.

Agar bo'lsa... demak sen ham, u ham insoniyat ichida o'ta noyob, haddan tashqari noyob toifadansizlar. Sizlarning qiymatingiz yo'q.

Qolganlarning hammasi erigan ma'danning ko'piklari bo'lsa, siz ma'danning o'zisiz. Lekin bunday bo'lishi uchun sadoqat, yillar va sinovlar kerak.

TAQIQNI BUZISH OQIBATI

Avval nafsga ergashamiz – amallarimiz yomonlashadi. Taqiqlangan ishlarni qilamiz. Buning oqibatida qalbda xastalik paydo bo'ladi. Aql nafsni razolatdan to'sa olmagach, inson jirkanch ishlarda davom etaveradi. Qalb avval zanglaydi, uni qora qurum bosadi, keyin ayniydi, iriydi, bir hovuch badbo'y bir suyuqlik holiga keladi.

Ana shu qalbning o'limidir. Xudo saqlasin!

Qalbning kasalligi eng avval g'azab bilan namoyon bo'ladi. G'azabning behuda alanga olishi qalbdagi jiddiy kasallikdan darak beradi. Ikkinchidan, kibr, boshqalarni past ko'rish va ulardan o'zini ustun ko'rish qalbning marazidir. Uchinchidan, insonlar haqida hamisha badgumon bo'lish, ularni asossiz ravishda ayblash qalbning illatidir. To'rtinchidan, insonlarning aybini bilishga, sirlarini ochishga o'ch bo'lish va bundan huzurlanish qalbning jiddiy shikastlanganiga dalil hisoblanadi. Beshinchidan, maqtov hamda maqtanishni sevishtirish qalbning ahvoli ayanchli ekanidandir. Oltinchidan, insonlar e'tibori va e'tirofini, o'zi haqidagi orqadan keladigan olqishlarga oshuftalik qalbning zaifligidandir. Bu kabi illatlarga uchragan odamlarda shoshqaloqlik, haqni va nasihatni qabul qilmaslik, g'iybatchilik, chaqimchilik, yolg'onchilik, ayyorlik, ikkiyuzlilik, zulm kabi harakatlar ko'rinadi. Qalbni tuzatish haqida o'ylash kerak. Shuningdek, harom va shubhali taomlar inson qalbi xastaligining asosidir. Har qanday nobop harakatning tagida qalbning xastaligi yotadi.

YETISHMOVCHILIK HISSI

Nimadir bizga yetmayotgandek. Nimadir bizdan qochyapti va uni tutib olish uchun shoshyapmiz. Aslida, hammasi joyida, hammasi muvozanatda – niyatimizga loyiq harakatdamiz. Harakatga loyiq baraka kelyapti.

Gunohlarimiz to'siq bo'lib, yo'limizni to'syapti, istig'for va xayr amallarimiz bu to'siqlarni yiqitmoqda. Qalbimizda Xudoga qanchalik sinib yolvorsak, hayo-

timizdagi mushkullar shunchalik yechilmoqda.

Faqat biz shoshyapmiz. Faqat biz behuda chiranmoqdamiz. Rizq va nasiba Xudoning ixtiyorida bo'lgani holda ko'nmayapmiz. Hech narsaning erta yo kechi yo'q: hammasi o'z vaqtida sodir bo'ladi, ishni buzsa, bandaning shoshqaloqligi buzadi.

Bandadan talab etilgani: yaxshi niyat, gunohlarga tavba, og'riqlarga sabr, ne'matlarga shukur va Xudoga ibodat va zikr.

Olamni tarbiyat qilib turgan Zotni tanisang, qayerga shoshasan va nima uchun toqatsiz bo'lasan? Sabrsizligimiz va jaholatimiz, g'afllatimiz va kaso-fatimiz uchun bizni afv qil, Xudoyim!

HALOVATNING SIRI

Kuchi yetmaydigan ishlarga uringan banda oqibatda o'zi shikastlanadi.

Vaqt o'z oqimida. Voqealar o'z o'zanida. Bandaning sapchishi uning uchun hech narsani o'zgartirmaydi. G'azab va qahr bilan tugunlar yechilmaydi, balki yanada qattiqroq tugiladi. Nafs uchun chorasizlikdan yaxshiroq dori yo'q – har muammoni o'z aqli va kuchi ila yechmoqchi bo'lganlar, albatta, bu achchiq dorini ichadi, boshqa iloji yo'q.

Ba'zan hovliqdik, ba'zan hapqirdik; ba'zan hokimlik istadik, ba'zan kuch-qudrat. Hukm va kuch-qudrat, izzat va hikmat Xudoniki. Banda o'z ishini qilsin va Xudoning ishiga burun suqmasin, shunda xotirjamlik va halovat, omonlik va ofiyat bandaning hayotini yoritgay.

YAXSHI BO'LIB KETSA, AJAB EMAS

Xodimlarning juz'iy kamchiliklari odatiydir. Ya'ni ishga kechikishi, topshiriqlarni o'z vaqtida bajarmasligi, unutuvchanligi. Darhol ularni qattiq koyishga, jiddiy so'zlar bilan ayblashga shoshilmang. Rahbar bu kamchiliklarni tuzatishga yordam beradi: lozim bo'lsa, har safar eslatadi, nasihat qiladi, lekin xodimdan voz kechish haqida o'ylamaydi.

O'zida tuzalish istagi bor bemorning shifo topishi oson bo'lganidek, o'sishni istagan xodim ham tanbehlardan to'g'ri xulosa chiqarib, malakasini shakllantirib boradi. Yillar va yo'llar odamni tarbiyalaydi. Oilada ham shunday: bizga tobelarga shafqatsizlik qilmaylik, ularni ehtiyotlab, sindirmay kamolga yetkazaylik. Kattalarimiz qattiqqo'llikni haddan oshirgandek tuyulsalar, haqlariga duo qilaylik, norozilik bildirmaylik va bizga aytilgan nuqsonni ketkazish haqida bosh qotiraylik.

Ba'zan uzoq vaqt, hatto umrbod boshqa odamlarning kichik xatolariga ko'z yumib yashashimiz kerak bo'ladi, axir, o'z ayblarimiz va gunohlarimizga chidab, kechirib, bahonalar topib yashab yuribmiz-ku! Yolg'on, xiyonat, sotqinlik, haromxo'rlik boshqa masala, bunday illatlar o'z egasini siz va bizning aralashuvimizsiz ham oyog'idan tortib botqoqqa olib tushadi va shu botqoqqa cho'ktirib yuboradi.

Biz o'zimizning kamchiliklarimizni tuzatish haqida fikr qilaylik, yonimizdagilarni tushunishga va kechirishga urinaylik, ajabmas, yaxshi bo'lib ketsa!



O'SISHDAGI HIKMAT

Insonning ulg'ayishi bosqichma-bosqich kechadi. Avval u bitta xatosini anglaydi, qiynalib tuzatadi; keyin ikkinchi nuqsonini kashf qilib, uni yo'qotish uchun intiladi. Odamning bir aybdan qutulishi tezda bo'lmaydi: og'riqli, kurashli, ko'zyoshli o'tadi.

Goho qayta-qayta urinish ham kutilgan mevani bermaydi.

Avval chaqaloq, keyin bola, keyin go'dak, keyin o'smir, keyin o'spirin, keyin yigit, keyin kishi, keyin qari, keksa deb atalishimiz bejiz emas. Har bir bosqichning o'z xususiyatlari bor: chaqaloq yig'laydi, hech narsani tushunmaydi; ovqatlanishdan, yuvinishdan bexabar va hokazo. Bola ishtonini kiya olmaydi, savol beradi, yuguradi, yiqiladi; go'dak hamma narsaga og'zini ochib qaraydi, savol beradi, qiziqadi; o'smir havolanadi, jahl qiladi, asabiy-lashadi, aldashga harakat qiladi, hammadan norozi; o'spirin o'ziga haddan oshiq ishonadi, hech kimni mensimaydi, hammadan xato topadi, hadeb gapirishni sevadi, o'zini ko'z-ko'z qilishga tirishadi, o'zini yaxshi inson va komil qilib taqdim etishga urinadi; yigit o'z kuchini his etadi, bosiq bo'lishga tirishadi, hayot qiyinchiliklarini asta tushuna boshlaydi, so'zlarini o'ylab aytishga harakat qiladi, mas'uliyat bilan yashashni o'rganadi; kishi bosiladi, vazmin tortadi, har xil orzulardan voz kechadi, dovdirlilik, qiziqqonlik va kaltafahmlikdan uzoqlashib boradi; keksa, qari endi shoshilmaydi, oxiratni o'ylaydi, oilasining kelajagi haqida qayg'uradi, yoshlarga o'z tajribalarini yetkazib, ularni turli balolardan himoyalashga kuchini sarflaydi va hokazo.

Odamning ulg'ayishi taxminan mana shunday zina-poyalar bo'ylab sodir bo'ladi.


Ko'plab yoshlar o'zini biror natija sohibi, aqlli, hamma narsani tushungan, gunohlariga tavba qilgan, hayotini izga solib olgan shaxs sifatida ko'rsatishadi, holbuki, hammasi yasama pardo, ya'ni dekoratsiya. Bu hol ularning go'dak zehniyatida ekanligining isboti, ya'ni infantil mentalitet.

Odamni nasihatdan ko'ra azob va uqubat o'stiradi. Nasihat va o'gitlarga quloq osmagan, o'zimbilaman deganlarni o'z holiga tashlashga majburiyat: ularni shu hollarida juda ham katta uqubatlar kutayapti, iztiroblar ularga intizor. Nachora, shunday qoqilish, peshonaning devorga urilishi unga yozilgan ekan-da, osh bo'lsin demakdan bo'lak ilojimiz yo'q.

Lekin ayrim yoshlar ichki his va salohiyat bilan o'zining hech kim ekanligini topadi. Maktab ochadimi, kompaniya egasi bo'ladimi, chetdan mol olib kelib sotadimi, PhD yoqlaydimi, men hech kimman deb yashaydi. U yo'lboshchi topib, unga bo'yin egadi; chunki ustoz unga nasihat qilib turadi, ana shu nasihat unga yo'lni xaritasi sifatida xizmat qiladi: endi u balo-ofatlarni, choh va chuqurlarni ko'rib, ularni chetlab o'tadi va murod-u maqsadiga shikastlarsiz yetadi.

Akrom MALIK,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotchilar
instituti ilmiy xodimi





(Davomi. Boshi 8-9-betlarda.)

Asarda Xayriddin Sultonning tilini dilbar, o'qishli qilgan, uning qalb to'liqlariga hamohang kezzan, Turkiston qayg'usini uning dardiga qo'shgan, Xayriddin Sultonning qo'liga qalam tutgan Abdulla Qodiriy ekaniga amin bo'ldim. Yuragida bo'lgan Vatan sevgisi, mehnati, ijodi, Vatanning o'tmishi bilan hamnafas bo'lib qog'ozga go'zal to'kilgan. Yozuvchi nafaqat ma'lum chegaradagi Turkiston hududi uchun kuyunchak, u chegaradan tashqarida qolgan xalqlar uchun ham kuyinib yozadi. *“...quvonchidan ko'ra hasrat va kadari bisyor bo'lg'an safar hissiyotini qanday bayon etsin? Qaysi mamlakat, qaysi manzil-marohilg'a bormasin, hamma joyda musulmon ummatini zabun, xor va miskin holda ko'rganini aytisinmi? Murg'ob va Ashxobodning atrof xalqi hanuz qora uy – chodirlarda, nimvahshiy holatda, kulfat ila tirikchilik o'tkazayotganini so'zlasinmi? Dunyodan, hatto o'zlaridan xabarlari yo'q bu bechoralar to'rt tarafi g'iyohsiz tog', besh-o'n oriqliq teva, har yerda ko'rinadigan bir-ikki eski olachiqni hayot mazmuni deb bilishlarini gapirsinmi? Chor lashkari Ko'ktepada yashagan minglab turkman elatini bola-chaqasi bilan bosh-oyoq qilichdan o'tkazib, ot tuyoqlari ostida toptaganini hikoya qilsinmi? Oq podshoh butun Osiyog'a shuhrat taratib, ibrat bo'lsin deya ushbu qatlagohda o'z askari sharafig'a maxsus bir muza barpo etganini ta'rif etsinmi? Ko'rganlari, ko'rib iztirob chekkanlari biron ta'rifga sig'urmi o'zi? Qafqoz diyorida pirsion, lazgin, dog'istoniy, chechen, qo'muq degan qavmlar yasharkan. Qishloqlari yo'ldan uzoqdur. Shu qadar olis yo'lda ikkitagina masjid ko'rindi. Ammo o'ris muhojirlarining qishloq va kalisolarlari yo'lg'a yaqindur. Musulmonlarning yerlari hosilsiz...”*

Kishilar boshiga tushgan kulfat-u azoblarni bu romandagidek tasvirlash... yozuvchi o'sha muhitni qalbidan o'tkarishidir. Muallifning o'zi ham qahramonlariga qo'shilib azoblanmagan, deb kim ayta oladi?!

Zotan, zukko kitobxon asardagi bu qayg'uli sahifalarni bitishda muallif janatmakon Mahmudxo'ja Behbudiyning mashhur “Sayohat xotiralari”dan ijodiy foydalanganini albatta anglaydi. Biroq yana bir haqiqat borki, Xayriddin Sulton ulug' salafining mahzun xotiralardan shunchaki ijodiy istifoda etish bilan cheklanmaydi. Ma'lumki, uning o'zi ham 1992-yili Bobur nomidagi xalqaro ilmiy ekspeditsiya tarkibida ikki oylik uzoq safarga chiqib, muqaddas haj ziyoratini ham amalga oshirgan, ramziy ma'noda, ustod Behbudiyning mashaqqatli yo'llarini qayta takrorlagan edi.

Faqat Behbudiy otash aroba – poyezd va paroxodlarda Yaqin Sharq bo'ylab sayohat qilgan bo'lsa, bizning muallifimiz bu qadim yo'llarni avtomobilda bosib o'tgan.

Buyuk ma'rifatparvar bobomiz “Sayohat xotiralari”da turkman, qirg'iz, qozoq, kavkazli birodarlarimizning og'ir hayotlaridan kuyunib hikoya qilgan bo'lsa, Xayriddin Sulton ekspeditsiya taassurotlari aks etgan “Boburiynoma” ma'rifiy romanida “bepoyon cho'l, yovshan, shuvoq tik-kaygan kimsasiz dashtlar, qum bar-

CHIN SHARQONA ROMAN

xanlari” yastanib yotgan turkman yurti, “manzarasi o'zimizning tog' qishloqlarini eslatadigan, faqat bundagi turmush tarzi birmuncha xarobroq” bo'lgan Eronzamin tuprog'i, “g'arib va xarob makonlar, supurgi tegmagan xonumonlar, qashshoq va zabun insonlar” yashayotgan Pokiston manzaralarini dard-u hasrat bilan tasvirlaydi.

“O'n kundan ziyod vaqt mobayni-da Taftondan Peshovarga qadar olis va mashaqqatli masofani bosib o'tgach, men jannatmakon Oybek domlaning asari (“Nur qidirib” qissasi nazarda tutilgan – T.T.) zamiridagi ma'noni angladim, – deb yozadi u. – Chindan ham, nur qidirib, yog'du qidirib bu besafo joylarda tentiragan inson o'z vatanining tuprog'ini ko'zlariga to'tiyo qilishi tabiiydir. Oradan o'ttiz yildan ortiqroq muddat kechgan bo'lsa-da, Pokiston ziyolilari, jafokash xalq hamon ziyo axtarish, yorug'likka talpinish bilan ovora. Ammo qayda o'sha nur, o'sha sehrli yog'du?!”

Ha, qayda o'sha nur, qayda o'sha sehrli yog'du? Sizning ham qalbingizda aks-sado beradigan bu armonli nidoni tinglar ekansiz, Mahmudxo'ja Behbudiy va Xayriddin Sultonning g'oyaviy-ijodiy qarashlarida qandaydir o'xshashlik borligiga, har ikkala adib ham musulmon ummati uchun alam-anduh chekib qalam tebratganiga ishonch hosil qilasiz.

O'zbekning ko'zyoshi – fig'onli bir daryo tovushi “Yaldo kechasi”da shundoq-qina eshitilib turadi. Millatlarimizning yaxlit bo'lishini, turk elatlari-yu qo'shni qavmlarning birlashishini nafaqat Yodgorbek, yozuvchining o'zi orzu qilib bularni, bu orzuni o'quvchiga yuqtirmak istaydi. Ming mashaqqat bilan chiqargan “Najot” gazetasining ilk sonidagi ilk maqola oxirida ham bu orzuni berib ketadi: *“Najot” Turkistonda bo'lg'an o'zbek, qozoq, turkman, tojik, totor, qirg'iz va boshqa ne qadar xalq bo'lsa, shularning hammasig'a bir tekis madaniy xizmat qiluvni o'ziga muqaddas bir vazifa qilib olg'andir”*.

Shu yerda bir o'xshatma bor, gazeta chiqqanidan xursandligini yozuvchi shunday ifodalaydi: Yodgorbek ehtimol to'ng'ich o'g'li Ozodbek tug'ilganda shunday xursand bo'lgandir. Vatan ishq – oiladan baland ekanligiga ishora asli. Jo'shqinlik va ilhom bilan yozilgan dilbar va dilrabo bu asar o'quvchiga Vatan tushunchasini singdiradi. “Yaldo kechasi” o'tkan kunlarimizni, jabru jafo chekkan ajdodlarimizni, istibdod va zulm buluti ostida to'kilgan yaproqlarimizni, uqubat iskanjasida, surgunda, qamoqlarda, ro'zg'orda ezilgan benavolaru bechoralar fojeasini baralla kuylagan asardir. Menday diydasi qattiq odamni ko'ziga yosh keltirgan, to'liqlantiradigan boblari ko'p. *“Taftish”* bobini o'qigach, biroz o'ygacha cho'mdim, hozir qaro tuproq ostida yotgan u yetimlarning o'tgan taqdiridan ezildim. O'quvchi bu asarni o'qir ekan, u mash'um kunlarni bugungi kun bilan istaydimi-yo'qmi, solishtiradi. Vatan taqdiriga befarq bo'lmagan har qanday o'quvchi bu asarni sevib o'qiydi, Vatanning qora o'tmishidan xulosa chiqaradi.

Bu asar hadis va Qur'on oyatlaridan foydalanilgan holda yozilganidan tashqari, roman qurilishining asosiy strukturalaridan biri maktublardir.

Maktub degani faqat qorxat emas. Yo egarning osti, kaptarning qanoti, choparning tumori tashigan maktublar emas. Romandagi maktublar orqali o'sha davr muhitiyu g'am-tashvishlari ochib berilgan. Bunda bitilgan nomalar maktab ochish qayg'usi, gazit ochish qayg'usi va hokazo... O'quvchiga maktublar orqali hodi-sa-jarayonlarni yetkazadi.

Qadimdan maktub adabiy asarlarda

o'z o'rni ega bo'lgan. Oshiqona maktublarga eng go'zal ta'rifni Navoiy bergan: “Hijrondagi shu'la”. Maktubning “mazmun” xili ko'p. Navoiy maktublarini yig'ib “Munshaot” tuzmish. Bobur ham Navoiyga maktub yozmish va maktub olmish. Bobur o'g'li Komron mirzoga xat yozmish... Asardagi maktublar, mulqot o'quvchilarga o'sha davrning shart-sharoitidan xabar beradi... O'zbek xalq ertagidagi gilamchi yigitning gilamga bitgan maktubi yigit jonini qutqargan. Maktub shaklida bitilgan badiiy asarlar ham ko'p. Boshqa turlari ham... O'lmas Umarbekovning “Qizimga maktublar”, Erkin Malikning “Nabiralaringa maktublar”... Go'zal muhabbat maktublari-da bisyor – tarixiy, o'chmas. Temurbekning Saroyulkxonimga... Muallifga bularning bari tanish. Bu adabiy bilimni romanda ko'rsata olgan. Uzilgan voqealarning aksariyatini maktub orqali bog'lay olgan. *“Vido maktublari”* bobidagi “Ariza” maktubday bitilgan. Beixtiyor ko'z oldingizga Abdulla Qodiriyning suddagi nutqi keladi. Abdulla Qodiriyning tirik nafasini sezasiz.

Kashshof taxallusli yosh yigitning davraga chiqib she'r o'qishini, hozirgi zamon yosh shoirlarining she'r o'qish holati bilan solishtirish uchun (negadir eslab, miyig'imga kulgu kelgach) *“Mushoi-ra emas, muhoro-ba”* bobini qayta o'qib ko'rdim (*“Kashshof she'rini hamisoli o'tin yorg'andek qarshilab o'qib berdi-da, boshini tepa tomong'a g'olibona, mag'rur silkib, sahnani tark etdi”*). O'qib borar ekanman, o'sha zamon ruhini, muhitini, siyosatini, sahna to'ri bo'lgan bo'sh-bayov she'rlarni bexato ko'z o'ng-ingizga olib kelib qo'yadi.

Asarni roviyidag hikoya qiladi muallif. Asar mutolaasida muallifni unutilib qo'yasiz. Gohi, shunday paytlari muallif “men aytib turibman” deganday o'zini eslatadi. Gohi, “Zerikib qolmadilaringmi?” deganday biror ishora bilan so'rab ketadi. Imkon boricha o'quvchini zeriktirmaslikka harakat qiladi. Asar oxirlasha borganda muallif sizga bergan va'dasini imkonsiz buzganini eslatadi. Aslida o'quvchi asarni shu holda o'qib ketsa ham muallifning bergan va'dasini unutilib asar bilan andamon qolar edi. *“...qo'lingizdagi kitobning o'tgan bir faslida, aniqlik, “Qo'y terisin yoping'an qashqir” deb nomlangan bobida “Najot” maktabidan sharmisor etib quvilg'an Rafiq maxzumning kirdi-korlari haqida jirkanih hikoya qilishga majbur bo'lg'an va bu xususda minba'd so'z ochmasliqqa va'da bergan edik. Taassufki, bu kun shul ahdimizni buzishga to'g'ri kelib, siz, izzatli mushitariylar qarshisida yuzimiz lolagun bo'lib turadiz. Lekin buning uchun kamina xodim-ingizni aybsitmaslig'ingizni o'tinib so'rar edim, chunki muallif bechoraning ixtiyorig'a zid o'laroq, o'shal fosiq maxzum qissamiz sahifalariga to'satdan, surbetona bostirib kirib keldi”*.

Shunaqa! Yozuvchi Xudo nima bersa, shuni yozadi. Ortig'ini yoza olmaydi, kamini to'ldira olmaydi.

Shu asarni o'qir ekanman, nasrda dardni qanday qilib badiiy ifoda qilishni biroz o'rganganday bo'ldim. Zamonlar o'zgar-sa-da, yillar o'tsa-da, ehtimol, asrlar o'tsa-da, dard chin badiiy ifoda qilingan asarlar yashab qolaveradi. Xayriddin Sulton ijodiga mening aytar so'zim hakamlik qilmaydi, o'zining asarlari haqiqiy hakamdird.

Yozuvchi bo'lib qalam tebratgan inson borki, butun umr oq qog'oz bilan yuzma-yuz yashaydi. Qahramonlarini qarindoshlaridek yaxshi biladi, ular haqida qayg'uradi. Hayoti mashaqqat bilan kechadi. Hayotning barcha jabhasida yashab ko'radi. Ayniqsa, boshqa bir yozuvchi

bo'lib yashab ko'rish oson emas. Yozuvchi asar yozayotganda unga hech kim yordam berolmaydi. Bitta nuqta yo vergul qo'yib bera olmaydi.

Uning shaxsi haqida zamondoshlarining yozganlari, hammaslaklarining “dedi”lari, qo'shnisining guvohligi yoki qog'ozdagi hujjatlar, fuqarolik pasporti haq so'zni gapira olmaydi. Har qanday yozuvchining ijodi, iste'dodining darajasi yozuvchiga haqiqiy hujjatdir.

Yozuvchi buyuk jasorat egasi bo'lishi kerak. Cheksiz sabr-matonat uning doimiy hamrohi. Xayriddin Sulton shunday jasorat egasi, o'ta zahmatkash yozuvchi ekani ham ushbu asari bilan isbotladi. Zamon betinim evrilishda. Vaqtni tutib qolish imkonsiz. Bunda o'tmishni tutib qolish-chi? Uni tutib zamondoshlariga yoki kelajak avlodga yetkazish-chi?! Ijodkor vazifasi xalq ongini yuksaltirish, mudrayotgan tuyg'ularini sergaklantirish. Xayriddin Sulton shu ishni qila oldi. Vatan haqida mudrab turgan tuyg'ularni yana bir bor sergaklantirdi.

Xayriddin Sulton dilbar yozuvchi. O'z uslubi bilan ajralib turadi, matnlari sof va toza – tiniq oqar soyday. Bu soyning suvi zilol, aksingni ko'rar bo'lsang loyqasi yo'q, ichar bo'lsang chanqog'ing qonadi. Uning yozganlari qalbini ro'yi-rost qog'ozda ko'rsatadi. Adib ijodini daraxtga mengzar esak, yaproqlar orasida yashirin mevalarini topa olasan. Yaproqlarini kurtak deb bilsang, gullar isini sezasan. Jumladan, biz so'z yuritgan “Yaldo kechasi” ham “tirik adabiyot” hosili. Bu asar uyg'oqlikka chaqiradi.

Yozuvchi adabiyotga kirib kelgan vaqtda adabiyot muhoblari uning asarlarini o'qib ishonch bildirgan ekan, u ishonchni oqladi. Bu ulug' ishonch xalqimizning ham ishonchidir. Adabiyot bo'stonida u o'zining gulzoriga ega. Uning bu asar ustida ishlagan mehnatini bu el, bu jamiyat qadrlay oladi deb o'ylayman. Qachon, qayerda bo'lmasin, o'zbek nasri haqida so'z ketganda Xayriddin Sulton nomi sevib tilga olinishi uchun uning asarlari hujjatdir. Uning ijodida tengdoshlari yozmagan, yoza olmagan, ko'rmagan dardlar, shodliklar, tuyg'ular ufurib turadi. U mas'uliyatli davlat xizmatidan ortib adabiyotni qalbida sof asray olgan zamondosh yozuvchimizdir. “Tengdoshlari yoza olmagan, tengdoshlari ko'rmagan” degan fikrga birgina misol. “Navoiy–30” binosi ma'lumu mashhur bino. Ancha yozuvchilar o'sha binoda tetapoya bo'lgan, xotiralari bor. Biroq Xayriddin Sulton go'zal qilib qalamga tushira oldi. Yuksak lavozimda o'tirib o'sha binoni eslab yozishi, do'stlarini, yozuvchilarni qayta ko'z oldidan o'tkarishi, bu – uning qalbida yozuvchilikka bo'lgan ishtiyoqning balandligi, bu – adabiyotni mansab pillapoyalaridan ustun qo'yganidir. Muhit imkon bersa, bo'yinbog'ini yechib, egniga xirqa ilib keta oladigan insonligidan dalolat. Yozganlari shuni aytadi. Asarlari ko'ngilga yaqin, hamsuhbat. Fikrlari teran, falsafiy. Quruq so'zlar ifodasi yo'q. So'zlar jonlanadi. Xayolga kelmagan go'zal tasvirlarni so'zda chizadi. O'quvchida hayajon uyg'otadi. U haqiqatan, o'zbek adabiyotiga go'zal asarlar berdi. Biron-bir kitobi avvalgisini takrorlamagan.

Bahodirga qilich izlagan o'sha bola murodiga yetganday... “Yaldo kechasi”ni o'qib, asar haqida bitganim, taassurotim shu. Tig'iz va keng ko'lamda olingan asar voqealari haqida esa mavridi bilan batafsil yozilgay. So'zni Usmon Nosirga beramiz:

*Bargdek uzilib ketsam,
Unutmas meni bog'im.*

Talant TOLERANT

Temuriy malikalar

Tarixiy manbalarda Gavharshodbegim siymosi

Temuriylar davri Markaziy Osiyo va Eron hududlarida siyosiy, madaniy hamda ilmiy hayotning yuksalishi bilan ajralib turadi. Bu davr tarixini o'rganishda davlat arboblari bilan bir qatorda, saroy hayotida muhim o'rin egallagan ayollarning faoliyati ham alohida ilmiy ahamiyatga ega. Ana shunday tarixiy shaxslardan biri Temuriy malika Gavharshodbegim – Shohrux mirzoning rafiqasi, Mirzo Ulug'bekning onasi bo'lib, Temuriylar saroyidagi nufuzli arbob va yirik madaniy homiy sifatida tanilgan. Gavharshodbegim nomi, avvalo, me'moriy inshootlar, ilm-fan va adabiyot ahliga ko'rsatgan homiyligi bilan bog'liq bo'lsa-da, uning siyosiy va ijtimoiy hayotdagi o'rni ham muhim tarixiy ahamiyatga ega.

Gavharshodbegim Shohrux mirzoning rafiqasi sifatida nafaqat saroy hayotida, balki davlat boshqaruvi, madaniy homiylilik va me'morchilik sohaslarida ham faol ishtirok etgan tarixiy shaxsdir. Uning nomi Hirot va Mashhad kabi ilm-madaniyat markazlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, qurdirgan masjid, madrasa va boshqa inshootlari Temuriylar davri me'morchiligining yuksak namunalaridan sanaladi. Shu bois Gavharshodbegim faoliyatini o'rganish orqali Temuriylar davrining siyosiy muhiti, saroy tuzilishini hamda ayol homiylarining tarixiy rolini yoritish mumkin. Mazkur maqolada Gavharshodbegim siymosini o'rganishda foydalaniladigan tarixiy manbalar majmuasi tahlil qilinadi. Jumladan, Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlayi sa'dayn va majmayi bahrain” nomli asarining birinchi va ikkinchi jildlari – birlamchi yozma manbalar sifatida ko'rib chiqiladi. Birlamchi manbalar orqali zamondosh mualliflarning qarashlari va tarixiy voqelik aks ettirilsa, ikkilamchi manbalar – zamonaviy tarixchilarning ilmiy tadqiqotlari, monografiyalari va maqolalari orqali Temuriy malika faoliyatiga berilgan ilmiy baholar yoritiladi. Shuningdek, me'moriy inshootlar ham Gavharshodbegimning madaniy va ijtimoiy faoliyatini yorituvchi muhim manbalar sifatida tahlil etiladi. Shu orqali Gavharshodbegim shaxsining tarixiy qiyofasini yanada to'liq va xolis yoritish maqsad qilingan.

Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlayi sa'dayn va majmayi bahrain” asari XV asrning muhim tarixiy manbalaridan biridir. Kamoluddin Abdurazzoq ibn Jaloluddin Is'hoq Samarqandiy(1413–1482) Hirot-da saroy xizmatida bo'lgan ziyolilar oilasida tarbiya topgan. 1438-yildan Shohrux mirzo saroyidagi devon al-inshoda xizmat qilgan. Shohrux mirzo elchisi sifatida 1441–1444-yillarda Kalikut, Vijayanagar rojasi saroyi, 1447-yili G'ilon hukmdori Muhammad saroyiga yuborilgan. Shohrux vafotidan keyin Abulqosim Bobur xizmatiga kirgan. Keyinchalik Sulton Abu Said mirzo saroyida ham xizmat qilgan va shu hukmdor tomonidan 1463-yili Shohrux mirzo xonaqohiga shayx etib tayinlangan.

“Matlayi sa'dayn va majmayi bahrain” ikki jildidan iborat asar bo'lib, birinchi jildda Amir Temur davri, ikkinchi jildda esa 1405–1470-yillar oralig'idagi voqealar yoritilgan. Gavharshodbegim siymosini o'rganar ekanmiz, aynan shu asar eng asosiy manbalardan biridir. Chunki Samarqandiy aynan o'sha davrda yashagan, Shohrux mirzo va boshqa shahzodalar xizmatida bo'lgan va Gavharshodbegim bilan shaxsan ko'rishgani uchun uning asari birlamchi manba hisoblanadi. Abdurazzoq Samarqandiy Gavharshodbegimni shunday ta'riflaydi: “Gavharshod og'o muborak soyali va baland martabali, shiori pokizalik va iffat pardasiga o'ralgan, xatti-harakati odilona va qilmishlari pok, oliyhimmat va ulug' orzuli, iffat pardasida Robia sifatlik va pokizalik yoping'ichida Zubayda yanglig' bir malika edi. Uning ezgu fazilatlarini adolat nigoristoniga soyabon-u maqtoqli qilmishlari oliyjanoblik debochasiga mundarija edi” (Abdurazzoq Samarqandiy. Matlayi sa'dayn va majmayi bahrain. II jild. – 2-3-qismlar: 1429–1470-

yil voqealari /– Toshkent: O'zbekiston, 2008. 424-425-b.). Asarda Gavharshodbegim to'ylarda, dafn marosimlari va diniy bayramlarda ko'p ko'zga tashlanadi: “Shavvol oyining yaxshiliqdan darak beruvchi hiloli saodat va iqbol ufqidan bolqib o'z jamolini ko'rsatgach, hazrat xoqoni sa'id iyd namozi va u baxtiyor vaqt odobini ado etishga kirishdi;... Mahdi ulyo Gavharshod og'o turli-tuman tayyorgarliklar ko'rgan edi, bir necha kun uzluksiz katta oshlar berdilar”. To'y marosimidan: “Zamon Bilqisi ham davron Qaydofasi bo'lmish mahdi ulyo Gavharshod og'o Chin suratxonasining rashkini keltiruvchi jannatsifat bazm tashkil etib, ziynatladi”. Abdurazzoq Samarqandiy asarda Gavharshodbegimni – Og'o, Oqo, Mahdi ulyo, Zamon Bilqisi, davron Qaydofasi nomlari bilan ta'riflaydi. Uning saltanat ishlariga aralashuvi asosan 1405-yildan so'ng, ya'ni Amir Temur vafotidan keyin boshlanadi.

Bundan tashqari, Samarqandiyning asarida kuza-tish mumkinki, Gavharshodbegim davlat ishlarida faol bo'lgan, valiahd tanloviga ta'sir o'tkaza olgan, amirlar bilan siyosiy munosabatlari yaxshi bo'lgan: “Mahdi ulyo Gavharshod og'oning zo'rlashi bilan amir Jaloluddin Feruzshoh mirzo Alouddavlagi bay'at qilganligi xabari eshitildi”. Shahzodalar tarbiyasi aynan Gavharshodbegimga topshirilgan edi, yosh shahzodalar ilmi va tarbiyasi bilan aynan ularning buvisi – Gavharshodbegim shug'ullanar edi. Asarda bunga ham to'xtab o'tilgan: “Ikki podshohzoda borasida mashvarat so'radilar va bu ishda ixtiyor qur'asini Mahdi ulyo Gavharshod og'oning durust tadbiriga topshirdilar”.

Asarda Gavharshodbegimning yuqorida ta'kidlangan siyosiy va tarbiyaviy faoliyatlaridan tashqari, me'morchilik rivojida sa'y-harakatlariga ham alohida e'tibor qaratilgan. Samarqandiy ta'rifiga ko'ra, Mahdi ulyodan yodgorlik sifatida Hirotidagi Gavharshod madrasasi va Mashhaddagi masjid va vaqfnoma qolgan. Har ikki shahardagi masjid va madrasa hozirgi kunda ham mashhur yodgorliklardan sanaladi. Ularning peshtoqlarida yozilgan yozuvlar ham tadqiqotda birlamchi manba hisoblanadi. “Matlayi sa'dayn va majmayi bahrain” asarida bu madrasaga shunday ta'rif beriladi: “U shunday bir imoratki, olamning butun ma'mur yerlarida unga o'xshashi topilmaydi. Yuksak fikrli chapdast (ustalar) bu imoratning latofat va matonatini diqqat nazari tomoshosi uchun bir manzara qilib unga bir balandlik baxsh etganlar hamda hunarmandchilik asosini shu qadar yuqori ko'targanlarki, agar uning sharh va ta'rifini baland osmon devonining ravshan fikrli dabiri quyoshning zarhalidan(siyoh qilib) gavhar yog'diruvchi qalami bilan nurlil o'yning kumushrang lavhasiga yozsa ham arziydi”. U hatto o'z qit'asida Quyosh va Oyni shu binoning g'ishti uchun ishlaganlar deb ta'rif beradi. Asarga ko'ra, bu madrasaga juda ko'p temuriy shahzoda va malikalar dafn etilgan. Dastlab Shohrux mirzo ham shu madrasaga dafn etilib, keyinchalik qabri Samarqandga ko'chirilgan. Madrasadan tashqari Gavharshodbegim Mashhadda qurdirgan masjid ham mavjud. Asarda masjid haqida shunday deyiladi: “Mah-



di ulyo Gavharshod og'o tangri salomlarini yo'llagur hazrat Imomning (qabri) qubbasi yoniga g'oyatda hashamatli va ziynatli bir masjidi jome qurishga boshlagan edi, shu kunlarda qurilib bitay deb qoldi. Bu latif ishlangan imorat hazrat xoqoni saidning nazariga g'oyat ma'qul ko'rindi”. Eronda joylashgan bu masjid hanuz mo'tabar ziyoratgohlardan hisoblanadi.

Asarda Gavharshodbegim vafoti haqida shunday deyiladi: “Bir siqim yovuz kishilarning sa'y-harakati bilan muborak ramazon oyining to'qqizinchisida (1457-yil 31-iyul) u zamon Bilqisi va u davron Qaydofasi qatlga yetdi” (Abu Said tomonidan qatl etilgan).

O'zbekistonda Gavharshodbegimni o'rganishdagi yetakchi ikkilamchi manbalar – Turg'un Fayziyevning “Temuriy malikalar” va “Temuriylar shajarasi” kitoblari hisoblanadi. Ikkala kitobda ham Gavharshodbegimga oid asosiy ma'lumotlar berilgan. “Temuriylar shajarasi” kitobida Gavharshodbegimning davlat ishlarida faolligi haqida shunday deyiladi: “Shohrux mirzo tabiatan mutaassib dindor shaxs bo'lib, ko'p vaqtini toat-ibodat va kitob mutolaasiga sarflardi. Devon ishlari va saltanatni o'ktam va tadbirkor xotini Gavharshodbegim boshqarardi”. Gavharshod ham Saroy Mulk xonim kabi davrining siyosiy faol ayollaridan edi. Hofiz Abru va Mirxondning asarlarida ham Gavharshodbegimning bu faolliklari va xalq orasidagi yuksak obro'si qayd etilgan. Asarda yozilishicha, Shohrux mirzo davlat ishlarida Gavharshodbegimning oqilona maslahatlariga suyangan. Shu sabab viloyatlarga hokim tayyorlash, qo'shinga sarkarda belgilash, kimga qanday mukofot yoki jazo berilishi kabi masalalar aynan uning ixtiyorida bo'lgan.

Gavharshodbegim, manbaga ko'ra, Shohrux mirzoning birinchi ayoli edi va ularning uch nafar o'g'li bo'lgan: Ulug'bek mirzo(1394–1449), G'iyosiddin Boysung'ur mirzo(1398–1433), Muhammad Jo'qiy mirzo(1401–1445).

Turg'un Fayziyevning “Temuriy malikalar” kitobi esa aynan Gavharshodbegim kabi davlat boshqaruvida o'z ta'siriga ega malikalar hayotiga bag'ishlangan. Dastlab Saroy Mulk xonim hayotiga to'xtalib, keyin Gavharshodbegim ta'rifi bilan davom etadi. Asarga ko'ra, Gavharshodbegim 1379-yili G'iyosiddin tarxon oilasida tavallud topgan. 1393-yilda esa Shohrux mirzo o'z nikohiga olgan. Asar davomida aynan yuqorida ta'kidlangan ta'riflar beriladi va Gavharshod “amaliy hukmdor” deb ham ta'kidlanadi. U nafaqat masjid va madrasa, bundan tashqari “Dorushshifo” nomli kasalxona, “Dorulhadis” nomli xonaqoh, ikkita hammom va shahar chetida madrasa, kutubxona qurdirganligi haqida ma'lumot shu asarda berib o'tilgan. Gavharshodbegim o'zi qurdirgan madrasaga dafn etilgan.

Zilola ABDULLAYEVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Eronshunoslik va afg'onshunoslik
oliy maktabi 1-kurs magistranti

Kinotavsiya


O'zini anglash va yo'qotish fasli

Farzand voyaga yetkazish mashaqqatli ish. Kelajakda u jamiyatda o'z o'rnini topishi, kasbiga mehr qo'yib, uni yurakdan bajarishi aynan o'smirlikda qiziqishlari to'g'ri yo'naltirilishiga bog'liq. Ammo bizda aksariyat ota-onalar farzandiga nisbatan adolatsiz munosabatda bo'ladi. Ushalmagan, armonga aylangan orzu-maqсадlarini farzandida ko'rishni xohlashadi. Qiziqishlariga qarshi chiqib, ko'p daromad topadigan, nu-fuzi baland kasb-korni tanlashga majbur qili-shadi. Bu esa insonni pul uchun yoqtirmagan ishini butun umr bajarishga majbur etadi.

O'smirlik o'zini anglab yetish va yo'qo-tish o'rtasidagi ko'prikkaga o'xshaydi, bu davrda inson o'zini topishi yoki orzu va qo'rquvlari orasida yo'qolib ketishi mum-kin. Bunday payti tomosha qilinadigan har bir film va ularning har bir qahramoni o'smir ongiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Quyida tav-siya etilgan filmlar nafaqat o'smirlar, balki ularning ota-onalari ham ibrat olishi, hayotga bo'lgan ishonchini oshirishga yordam bera-di.

Baxt izlab

The Pursuit of Happyness – ushbu film real voqealarga asoslangan bo'lib, hayotning og'ir damlarida kurashishdan chekinmaslik, har qanday vaziyatda ham orzulardan voz kechmay ularni amalga oshirishda qat'iyatli bo'lishga undaydi. Film nafaqat inson ruhi-yatini, balki hayotdagi mag'lubiyatlar bilan qanday kurashish kerakligini ham ko'rsatadi. Filmni tomosha qilsangiz, ota va bolaning mustahkam ishonch rishtalari ham sizni o'zi-ga tortadi.



Oktabr osmoni

October Sky filmi 50-yillardagi kichik bir Amerika shaharchasida yashovchi bolalar-ni orzularini amalga oshirishga bo'lgan intilishlari haqida hikoya qiladi. Film real voqealarga asoslanib, Homer Hickamning (Jake Gyllenhaal) bolalik yillaridagi kashfi-yotlari va raketa qurishga bo'lgan ishtiyoqi orqali ilm-fan va orzularning qanday amalga oshirilishini tasvirlaydi.

Filmda Homer va uning do'stlari ilm-fan va texnologiya orqali o'z orzularini amal-ga oshirishga harakat qiladi. Kichik sha-harchada yashasa ham ularga katta dunyo va ilmiy yutuqlar uchun yo'l ochiladi. Ilm-fan va texnologiyaga bo'lgan mehr va orzular-niing kuchi tasvirlanadi. Homer va uning do'stlari raketa qurishga bo'lgan ishtiyoqi orqali ilm-fan sohasida yangi ufqlarni yarata-di. Orzularini amalga oshirishda ijtimoiy va iqtisodiy to'siqlar bilan kurashishadi. Otasi uning ham o'zidek usta bo'lishini xohlab, unga ishonchsizlik bildirib, orzulariga qarshi boradi. Film ilm-fan, texnologiya va insoni-yatning o'z imkoniyatlarini kashf etishga intilishi o'rtasidagi mukammal bog'lanishni tasvirlash bilan birga ota va farzand o'rtasi-

dagi nozik aloqalarni ham ko'rsatadi. Mu-vaffaqiyatga erishishda asosiy to'siq o'z yaqinlarimiz ekanligini chiroyli tasvirlay-di. Homer Hickamning haqiqiy hikoyasi, yoshlarni o'z orzularidan voz kechmaslikka va hech qachon o'z imkoniyatlarini past ba-holamaslikka undaydi.

Film nafaqat ilm-fan va texnologiya so-hasiga, balki insonning orzularini amalga oshirish uchun kurashish, muammolarga dosh berish va oxir-oqibat muvaffaqiyatga erishish borasida muhim hayotiy saboqlarni beradi. Yigirmanchi asr oxirlarida suratga olinganiga qaramay asar hali-hamon aktual-ligini yo'qotmagan.



Ruh

Soul – hayot va maqsad haqida chuqur o'yga toldiruvchi film. Musiqa orzusila ya-shash bilan birga, hayot mazmunini tushu-nishga intilgan inson haqida. Soul faqatgina o'z orzularini amalga oshirish emas, balki haqiqiy baxt va hayotni qanday qabul qilish-ni o'rganish haqida ham hikoya qiladi. Film-dagi asosiy mavzu hayot mazmuni, baxt va maqsad. Bosh qahramon Joe Gardner mu-siqa o'qituvchisi, ammo u jazz musiqachisi bo'lishni istaydi. Bir kuni uning orzulari usha-lish arafasida umrbod to'xtaydi. Bu voqea uni "Ruhlar olami"ga olib boradi, u o'zining hayotiy maqsadini tushunib, haqiqiy baxtni izlashni boshlaydi. Ruhlar olamida mexa-nizmlar yordamida hayotidagi qadriyatlarini va haqiqiy baxtni topishga intiladi.

Film baxtni kashf qilishda orzular va haqiqiy hayot o'rtasidagi muvozanatni topish muhimligini uqtiradi. Qahramon dastlab mu-siqachi bo'lishni istaydi, ammo oxir-oqibat u hayotning maqsadi nafaqat orzularni amalga oshirish, balki o'zining ichki dunyosini ang-lashda ham ekanligini tushunadi.

Ha, ba'zan orzu va maqsadlar inson-niing haqiqiy baxtini topishiga to'siq bo'lishi mumkin ekan. Hayotning oddiy va kichik lahzalari qadriga yetish kerak. Piksar o'zi-niing yurakni titratadigan va o'ylantiradigan an'anaviy hikoyalarini yangi darajaga olib chiqib, hayotning asl maqsadi va uning maz-muni haqida yangicha qarashni ochib beradi. Oilaviy tomosha qilish uchun ideal film.



Boshqotirma

Inside Out – bolalik va o'smirlik jara-yonida yuzaga keladigan hissiy o'zgarish-lar va his-tuyg'ularga qanday munosabatda bo'lish kerakligini tasvirlaydi. 11 yoshli Rileyning ichki dunyosida yashayotgan his-

tuyg'ular: baxt, qayg'u, g'azab, qo'rquv, nafrat (joy, sadness, anger, fear va disgust) ning o'zaro muloqoti Rileyning hayoti va qarorlariga ta'sir qiladi. Film his-tuyg'ular-ni qanday qabul qilish va ularni boshqarish kerakligini o'rgatadi.

Rileyning oilasi Minnesotadan San-Fran-siskoga ko'chib borishi hayotida katta o'zgarishlar va yangi bosqichni boshlab beradi. U bilan birga uning his-tuyg'ulari ham "ko'chib boradi" va hayotdagi yangi muammolarni hal qilishda Rileyga yordam beradi.

Baxt filmdagi asosiy qahramonlardan biri, Rileyning ijobiy, hayotga chanqoq his-tuyg'usi. **Joy** o'zini Riley uchun eng muhim his-tuyg'u deb hisoblaydi va uni doim baxtli qilish uchun harakat qiladi.


G'am Rileyning g'am-tashvish va achi-nish tuyg'usi. G'am dastlab salbiy obraz si-fatida namoyon bo'lsa-da, filmda uning ham o'ta muhim o'rni borligi ayonlashadi. U Ri-leyni ichki dunyosining muhim bir qismi-ga aylanadi, ya'ni uning o'sish va rivojlanish jarayonida katta rol o'ynaydi.

G'azab Rileyning qattiq va noxush vazi-yatlar bilan kurashayotganida paydo bo'ladi. G'azab Rileyni adolatni talab qilishga un-daydi.

Qo'rquv uni xavf-xatarlardan saqlashga harakat qiladi. Noaniq yoki xavfli vaziyatlar-da ehtiyotkorlik bilan yondashishga yordam beradi.

Nafrat noqulay va yomon holatlar bilan yuzlashganda his qiladigan tuyg'u. U nafaqat Rileyni yomon narsalardan ogohlantirish, balki uni yaxshi odatlar va toza muhitda saqlashga ham yordam beradi.

Filmda bu his-tuyg'ular o'rtasida o'za-ro kurash va hamkorlik mavjud. Ularning har biri Rileyning ichki dunyosida o'z vazi-fasini bajaradi, ammo ular doim bir-biriga qarama-qarshi yondashuvlarda bo'lishadi. Asosiy mazmun esa his-tuyg'ularni faqat-gina "yaxshi" yoki "yomon"ga ajratmaslik kerakligini ko'rsatadi. G'am, baxt, qo'rquv, g'azab va nafrat – bularning barchasi inson-niing o'sishi, qarorlar qabul qilishi va muam-molarni hal qilish jarayonida zarur. Film, his-tuyg'ularni qabul qilish va ular bilan ya-shashni o'rgatadi.



Yonimda bo'l

Stand by Me filmi 1982-yili nashr etilgan Stephen Kingning "The Body" nomli qisqa hikoyasi asosida ishlangan. Do'stlik, o'sish va hayotning murakkabliklarini o'rganish haqida so'z yurituvchi ajoyib film. Asosiy g'oya o'smirlik davrida do'stlik rishtalari, ijtimoiy muammolar va individual muam-molarni birgalikda yengishning ahamiyatini ko'rsatadi.

Film faqatgina o'smirlikning og'ir va noxush tomonlari haqida hikoya qilmay-di, balki do'stlik va sadoqatning qanchalik qimmatli ekanini ham ko'rsatadi. O'smirlar-niing o'zlarini tushunish va ichki kurashlarni yengishdagi sayohati va bu sayohat oxirida hayotning asl maqsadini anglashga erishish-lari tomoshabinlarni chuqur mulohazaga chorlaydi.

To'rt bola qorong'u va murakkab davr-larini boshdan kechirishadi, lekin birdam-lik, sadoqat orqali bu davriy muammolarni yengib o'tadilar.



O'lik shoirlar jamiyati

Dead Poets Society – o'smirlarda hayot va ijodiy erkinlik haqida chuqur tasavvur uyg'otuvchi dramatik, ko'zyoshlaringizga arziydigan film. Voqealar 1959-yili Ameri-kaning konservativ ta'lim tizimidagi elit maktab-internatida bo'lib o'tadi. Filmning markaziy mavzusi insonning o'ziga bo'lgan ishonchini topish, ijodiy erkinlikni his qilish va boshqalar yasagan qolipdagi hayot va an'analar bilan kurashishdir.

Dead Poets Society asosan o'smirlarning o'zlarini anglash va shaxsiyatini shakllanti-rish jarayonini, jamiyat va ta'lim tizimi bi-lan yuzma-yuz bo'lishini tasvirlaydi. Filmda qat'iy va bosim ostidagi ta'lim tizimiga qar-shilik g'oyasida yoshlarni ijodiy va intellek-tual erkinlikka da'vat etgan bir o'qituvchi hikoyasi aks etgan.

Bosh qahramon yangi ingliz tili o'qituv-chisi. U o'quvchilariga Keating maktabidagi konservativ o'qitish uslublaridan tubdan farq qiluvchi ijodkorlikni, erkinlik va o'z fikrlar-ini ifoda etishni o'rgatadi. U "Carpe Diem" (Bugunni yashang) g'oyasini ilgari suradi va o'z hayotini to'liq yashashga va imkon-iyatlarini qadrlashga undaydi. Keating mak-tabining yangi uslubi o'qituvchi va o'quv-chilar bir qismiga yoqmasa-da, oxir-oqibat u o'smirlarning hayotini o'zgartiradi va ularga haqiqiy maqsadlarini anglashga yordam be-radi.

Voqealar Neil Perry va uning do'stlari atrofida kechadi, u Keatingning eng yaxshi o'quvchilaridan biri. Neil, o'zining otasi tomonidan belgilangan kelajakdagi "ideal ish", tibbiyot sohasini tanlashni istamaydi. U ijod qilish va sahnaga chiqishni orzu qiladi. O'zining haqiqiy orzulariga erishish uchun Keating maktabining eskicha an'analari bi-lan kurashadi, ammo otasining kuchli bos-i-mi va qo'llab-quvvatlashining yetishmasligi umidlarini so'ndiradi. Fojiaviy yakun film-niing eng ta'sirli va o'ylantiruvchi qismlari-dan biridir.




Dead Poets Society bu o'smirlarning o'zlarini anglash, ijodiy erkinlikni topish va hamma qatori yashamaslik, qoliplarga qarshi kurashishi haqidagi film. Film, o'z orzulari-ga erishish uchun jasorat va qat'iyatlilikni namoyish etishi, shu bilan birga, o'zini ang-lash va boshqalar bilan aloqada bo'lishda samimiy va haqqoniy bo'lishning ahamiyati-ni ko'rsatib beradi. Dead Poets Society – bu faqatgina o'smirlik haqida film emas, balki hayotning maqsadi va uni qanday to'liq ya-shashni tushunishga yordam beradigan asar. Bu film, har bir tomoshabinni o'zini izlash, yo'lini topish va hech qachon orzularidan voz kechmaslikka chorlaydi.

Shodiyona XUSHMURODOVA,
"Ma'rifat" muxbiri

O'ZBEKISTON DAVLAT SPORT AKADEMIYASI

quyidagi bo'sh
lavozimlarni
egallash uchun

TANLOV E'LON QILADI:



Dotsent lavozimiga:

- “Yakkakurash va suv sport turlari” kafed-rasi – 1 nafar;
- “Parasport va umumkasbiy fanlar” kafed-rasi – 1 nafar.

Tanlovga ariza va hujjatlar e'lon chiqqan kundan boshlab 1 oy muddatda qabul qilinadi.

**Manzil: Yangi O'zbekiston ko'chasi,
Olimpiya shaharchasi. Telefon:
(90) 186-95-24; telegram: (90) 186-95-24.**



**TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI**
Tashkent state
transport university

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

**KAFEDRALAR BO'YICHA PROFESSOR-O'QITUVCHILARNING BO'SH LAVOZIMLARIGA
TANLOV E'LON QILADI**

- “Aviatsiya injiniringi” kafed-rasi – katta o'qituvchi, assistent;
- “Avtomobilsozlik va ishlab chiqarish muhandisligi” kafed-rasi – dotsent;
- “Avtomobil va avtomobil xo'jaligi” kafed-rasi – katta o'qituvchi, assistent;
- “Avtomobil yo'llaridagi inshootlar muhandisligi” kafed-rasi – dotsent;
- “Avtomobil yo'llarini loyihalash va geometrika” kafed-rasi – dotsent, assistent;
- “Amaliy mexanika” kafed-rasi – dotsent, assistent;
- “Aeronavigatsiya tizimlari” kafed-rasi – dotsent, katta o'qituvchi;
- “Bino va sanoat inshootlari qurilishi” kafed-rasi – professor, dotsent;
- “Vagonlar va vagon xo'jaligi” kafed-rasi – dotsent;
- “Jismoniy tarbiya va sport” kafed-rasi – dotsent, assistent;
- “Ijtimoiy fanlar” kafed-rasi – professor, dotsent;
- “Informatika va kompyuter grafikasi” kafed-rasi – assistent;
- “Yo'l muhandisligi va telemekani” kafed-rasi – dotsent, assistent;
- “Yo'l harakatini tashkil etish” kafed-rasi – assistent;
- “Korporativ boshqaruv” kafed-rasi – dotsent, katta o'qituvchi;
- “Ko'priklar va tonnellar” kafed-rasi – dotsent, katta o'qituvchi;
- “Lokomotivlar va lokomotiv xo'jaligi” kafed-rasi – dotsent, assistent;
- “Materialshunoslik va mashinasozlik” kafed-rasi – professor, dotsent;
- “Muhandislik kommunikatsiyalari va tizimlari” kafed-rasi – dotsent;
- “Oliy matematika” kafed-rasi – dotsent, assistent;
- “Radioelektron qurilmalar va tizimlar” kafed-rasi – dotsent;

- “Tabiiy fanlar” kafed-rasi – kafedra mudiri, dotsent;
- “Temiryo'l muhandisligi” kafed-rasi – dotsent, assistent;
- “Temiryo'ldan foydalanish ishlarini boshqarish” kafed-rasi – professor, dotsent, assistent;
- “Texnologik mashinalar muhandisligi” kafed-rasi – professor, dotsent, katta o'qituvchi;
- “Texnosfera xavfsizligi” kafed-rasi – dotsent;
- “Transport vositalari muhandisligi” kafed-rasi – katta o'qituvchi;
- “Transport iqtisodiyoti” kafed-rasi – dotsent, katta o'qituvchi;
- “Transport intellektual tizimlari muhandisligi” kafed-rasi – dotsent;
- “Transport logistikasi” kafed-rasi – dotsent, katta o'qituvchi, assistent;
- “Transport energetik qurilmalari” kafed-rasi – dotsent;
- “Transportda axborot tizimlari va texnologiyalari” kafed-rasi – dotsent, assistent;
- “O'zbek (rus) tili” kafed-rasi – dotsent, assistent;
- “Xalqaro ommaviy huquq” kafed-rasi – kafedra mudiri, dotsent, katta o'qituvchi, assistent;
- “Hisob va biznes” kafed-rasi – dotsent;
- “Chet tillari” kafed-rasi – dotsent, assistent;
- “Elektr ta'minoti” kafed-rasi – dotsent;
- “Elektr harakat tarkibi” kafed-rasi – dotsent;
- “Elektrotexnika” kafed-rasi – dotsent;
- “O'zbek (rus) tili” kafed-rasi – dotsent, assistent;
- “Yuk transport tizimlari” kafed-rasi – professor, dotsent.

Kafedra mudiri lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi ilmiy darajasiga, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, shuningdek, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo'lgan shaxs ishtirok etishi mumkin.

Professor lavozimini egallash uchun tanlovda, qoidaga ko'ra, professor ilmiy unvoniga yoki fan doktori ilmiy darajasiga, shuningdek, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo'lgan shaxs ishtirok etishi mumkin.

Dotsent lavozimini egallash uchun tanlovda, qoidaga ko'ra, dotsent ilmiy unvoniga, katta ilmiy xodim yoki fan doktori (nomzodi) ilmiy darajasiga, shuningdek, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (PhD) yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo'lgan shaxs ishtirok etishi mumkin.

Katta o'qituvchi lavozimini egallash uchun tanlovda oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxs (magistr, diplomli mutaxassis), shuningdek ilmiy daraja (shu jumladan, fan nomzodi, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (PhD) darajasiga yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga) va ilmiy unvonga ega bo'lgan hamda bunday daraja va unvonga ega bo'lmagan, biroq o'qituvchilik, ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish ishlari tajribasiga ega bo'lgan shaxslar ham qatnashishi mumkin.

Assistent lavozimi tanlovida tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan (magistr, diplomli mutaxassis) shaxslar qatnashishlari mumkin.

Tanlovda ishtirok etishni xohlovchilar universitet rektori nomiga ariza bilan kadrlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqa, avtobiografiya, diplomlar va attestatlar, pasport nusxalari, ilmiy ishlar va ixtirolar ro'yxati, malaka oshirganlik to'g'risida hujjatlar nusxalari, hisobot (oxirgi 5 yil yoki buyruq chiqqan davrdan) topshiriladi.

Arizalar e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddatda qabul qilinadi.

**Manzil: Toshkent shahri, Temiryo'lichilar
ko'chasi, 1-uy, 377-xona.
Ma'lumot uchun telefonlar:
(71) 299-00-15.**



Umr – bebaho, oliy ne'mat. Yaratganning odamzodga ato etgan eng buyuk tuhfası. Zero, bu omonat, foniy dunyoga ikki qo'li ochiq holda mehmon bo'lib kelgan zot uchun ikki talab qo'yilgan: birinchisi, haqiqiy inson degan nomga erishish bo'lsa, ikkinchisi, o'zi kabi tomiridan bir xil qon oqib turgan qondoshlari, jamiyat va Vataniga ezigulik qilishdan iboratdir.

Ustoz Islom Zokirov umri-ning ko'p yillarini ta'lim tizimida rahbarlik lavozimlarida o'tkazgan. Ko'pgina samarali loyihalar, ta'lim islohotlarini amalga tatbiq etishda bosh-qosh bo'lgan.

Ulug' yoshda ushalgan orzu

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi rivojiga munosib hissa qo'shgan, pedagogika fanlari nomzodi, "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi" faxriy unvoni sohibi Islom Zokirovning "Umrin kitobi" nomli asari taqdimoti bo'lib o'tdi. Unda ustozning hamkasb do'stlari, oila a'zolari, qadrdon ustoz-shogirdlari ishtirok etdi. So'zga chiqqan Temur Shirinov, Shukur Dadash, Shuhrat Jabborov, Narziqu Turdiyev, Shoira Norboyevalar ustozni ilk kitob taqdimoti bilan tabrikladilar.

"Umrin kitobi" sakkiz qismdan iborat bo'lib, "Samimiy dil izhorlari", "Shajara", "Yo'llar va yillar", "Burch va sadoqat", "Mo'jaz Vatan", "Azizlarim, qadrdonlarim", "Vatan va xorij zaminida", "Ushalgan orzu" kabi fasllarda pedagogning hayot falsafasi, umr yo'li haqida o'qiysiz.

Kitobda hayotning rang-barang sahifalari, sinovli kunlari,

muallifning boshidan kechirgan voqealari hikoya qilinadi va oxir-oqibat barcha sinovlarning mukofoti sifatida insonning qadr topishi aks etadi. Ushbu kitob Islom Zokirov tavalludining 70 yilligi hamda ijodiy faoliyatining 50 yilligiga bag'ishlanadi.

Kitob muqaddimasida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir, publitsist, "Xalq ta'limi fidoyisi" ko'krak nishoni sohibi Shukur Dadash Islom Zokirovning surati-yu, siyratiga oid chizgilarni bildirib o'tgan: "1955-yil 17-iyun. Janubiy Qozog'iston viloyati tasarrufidagi ko'hna, tarixiy makonlaridan biri Turbat qishlog'idagi xonadonlarning birida chaqaloq yig'isi eshitildi. Ulug'lar qadami tekkan ushbu qutlug' zaminga yana bir o'g'lonning kindik qoni to'kildi. Qishloq ahlining mehri, hurmatiga sazovor bo'lgan Zokirboy boboga evara, Isoqboy aka hamda Lazokatxon ayaga yana bir farzand ne'mati nasib etdi... Tabiatan kamtar, odamoxun, husni xulq, qalbi beg'ubor, doimo havas bilan boquvchi,

insoniylik burchi va musulmlik talablarini sharafla ado etib kelayotgan sadoqatli do'stimiz Islom Zokirov qutlug' 70 yoshga qadam qo'ydi".

Shuningdek, ta'lim sohasi dafg'alaridan bo'lgan Risboy Jo'rayev, Temur Shirinov, Kamoliddin G'opirov, Narziqu Turdiyev, Nazira G'ulomova, Namoz Ro'ziqulov, Sharifjon Ergashev, Buxorboy Akromov kabi yetuk pedagog olimlar ham Islom Zokirov bilan bog'liq hayotiy, ibratli voqealar, uning shaxsi, insoniy fazilatlarini haqida o'z fikr va mulohazalarini bildirganlar.

Qashqadaryo viloyati "Navqiron" gazetasi bosh muharriri, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi, kitobning mas'ul muharriri Qursiya Qo'ldosheva kitobni "Hayot darsi" deb ta'rifladi.

Pedagog-ustoz milliy ta'limning nufuzini oshirish, uning samaradorligini ta'minlash borasida kuch-g'ayrati, bilimni ishga soldi, ilmiy izlanishlar olib bordi, uslubiy kitoblar chop etdi, joylardagi ilg'or tajribalarni res-

publika maktablarida ommalash-tirishga muvaffaq bo'ldi. Oqibatda u haqli ravishda pedagogika fanlari nomzodi degan ilmiy darajaga sazovor bo'ldi. "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi" unvoni sohibi, o'z kasbining fidoyisi Islom Zokirov o'zining mazmunli umri davomida roppa-rosa 37 yil rahbarlik lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi.

Donolarimiz: "Yaxshi rahbar bo'lmoq uchun eng avval yaxshi inson bo'lmoq kerak" degan aqidani hayot shiori deb bilganlar. Bu hayotiy tajribaga amal qilgan qahramonimiz birinchi navbatda xalq, davlat oldidagi mas'uliyatini his qilgan holda kamtarinlik, insoniylik fazilatlarini boshiga toj qildi. Insonlarga yaxshilik qilishni o'zining kasbiy vazifasi va burchi deb bildi. Eng muhimi, kelajak avlodlar uchun o'zidan yaxshi nom qoldirish – bu hayot mazmuni ekanini anglab, bemin-nat fidokorona mehnat qilishdan tolmadi.

Nazokat XOLMETOVA,
"Ma'rifat" muxbiri

O'zbek adabiyotida urush mavzusi turli davrlarda turlicha talqin qilib kelingan bo'lsa-da, ayrim asarlar borki, ular o'quvchini voqea ichiga olib kiradi, uni nafaqat kuzatuvchi, balki dardning bevosita guvohiga aylantiradi. Xolmuhammad Karimiyning "Qora lola" romani ana shunday asarlardan biri. Ushbu roman 1979–1989-yillarda Afg'onistondagi urushning dahshatli manzaralari, inson taqdiriga solgan og'ir izlari va ma'naviy-ruhiy talafotlarini chuqur va ta'sirchan ifodalagan asar sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

“Qora lola”ni o'qib...

Asar butun insoniyatning azal-azaldan dushmani bo'lmish urush oqibatlarini, uning jirkanch qiyofasi haqida. Yozuvchi bu ko'rguliklarni o'z boshidan kechirgan, yurakdan his qilgan, guvohi bo'lgan. Shu sababdan ham "Qora lola" oddiy to'qima asar emas, balki hayot haqiqatidan tug'ilgan, chin dard va iztiroblarni so'zlaydigan asardir.

"Urush o'z nomi bilan urush. U hech kimni ayab o'tirmaydi, hech kimga baxt keltirmaydi", degan fikr romanning butun mohiyatini ifodalab turadi, qanchalik mudhish, shafqatsiz va ma'nosiz ekanini teran his qildiradi. Muallif urushni qahramonlik maydoni sifatida emas, balki insoniyatning eng katta fojialaridan biri sifatida ochib beradi. Asarda jang maydonidagi qonli manzaralar, urush sabab vayron bo'lgan taqdir, singan orzular, yarim yo'lda uzilgan umrlar, o'z vatanidan uzoqda halok bo'lgan yoshlarning armoni juda kuchli aks ettirilgan.

Romanda nomining o'zi ham nihoyatda chuqur ramziy ma'noga ega. "Qora lola" urushda halok bo'lgan askarlar-

ning jasadlarini olib ketuvchi samolyotning ramziy nomi. Bu ibora o'zida faqat motamni emas, balki butun bir avlod fojiasini mujassam etadi. Lola odatda go'zallik, noziklik, yoshlik va hayot timsoli bo'lsa, uning "qora" sifatida berilishi o'quvchiga bir vaqtning o'zida go'zallik va fojeaning, umr va o'limning, umid va iztirobning yonma-yon yashashini eslata-di. Muallif ushbu obraz orqali urushning ichki va tashqi mohiyatini bir nuqtaga jamlagan.

Roman urushning boshlanish sabablari ham nihoyatda keskin va haqqoniy ochib beriladi. Muallif urushni "bir guruh kaltabin kishilarning qarori" natijasi ekanini ko'rsatadi. Bu juda muhim g'oya. Chunki urushni odatda oddiy xalq boshlamaydi, uni hokimiyat, siyosat, manfaat yoki mafkura yo'lida qaror qabul qilganlar boshlab beradi. Ammo uning eng katta zarbasi oddiy insonlar – askarlar, onalar, otalar, bolalar va butun jamiyat zimmasiga tushadi. "Qora lola" ana shu adolatsizlikni, ya'ni qarorni birlar qabul qilib, azobini boshqalar tortishini nihoyatda achchiq haqiqat bilan ko'rsatadi.



Romanning yana bir muhim jihati, unda urushning faqat tashqi qiyofasi emas, balki inson ruhiyatidagi parchalanishlar ham juda chuqur tasvirlangan. Asar qahramonlari oddiy, hayotiy, tirik insonlar sifatida gavdalanadi. Ular qo'rqadi, iztirob chekadi, Vatani, uyini sog'inadi, ayriliqdan eziladi, buyruq va vijdon o'rtasida ikkilanadi. Bu holatlar romanga yuksak psixologik kuch bag'ishlaydi. Muallif qahramonlarni faqat jangchi yoki buyruq bajaruvchi shaxs sifatida emas, balki qalbi uyg'oq, dardchil, orzulari va armonlari bisyor insonlar sifatida ko'rsatadi. Shu sababli o'quvchi asarni o'qir ekan, voqealarni shunchaki kuzatmaydi, ich-ichidan his qiladi.

Shodiyo
XUSHMURODOVA,
"Ma'rifat" muxbiri

Taqriz

“Menga oltin medal kerak emas!”

"Ilm-ma'rifat" nashriyotida matematika-fizika fanlari doktori, professor, yozuvchilar uyushmasi a'zosi Mansurxon Toirovning "Jannatga yo'l" romani nashr etildi. Ushbu roman muallifning "Muhabbat izidan" trilogiyasining uchinchi kitobi bo'lib, unda ilk roman – "Silovsin ovchisi"da boshlangan izlanishlar mantiqiy davom etadi. Yodingizda bo'lsa, "Silovsin ovchisi" romani haqida ham o'qigan edik ("Ma'rifat" gazetasi, 2025-yil 6-avgust, "Ilm va adabiyot chorrahasida", Shahnoza YANGIBOYEVA).

"Jannatga yo'l" romani voqealari insonning ichki olami, ruhiy iztiroblari, qalb kushashlari va hayotiy tanlovlari bilan bog'liq masalalarni o'rta tashlaydi. Muallif o'z qahramonining his-tuyg'ulari orqali insonning borliqdagi mohiyati, muhabbatning inson hayotidagi o'imi va ma'rifatning kuchini badiiy tarzda yoritadi. Ayniqsa, muallifning voqelikni hayotiy tasvirlar bilan uyg'un holda ifoda etishi kitobxonni o'ziga tortadi. Roman oddiy sujet asosida qurilgandek tuyulsa-da, uning mohiyati anchayin chuqur mushohada talab etadi.

Asarning muhim jihati shundaki, unda tarix va zamon, ilm va ish, orzu va haqiqat kabi tushunchalar falsafiy tahlil asosida berilgan. Bir qarashda kitobning "Aljir", "Oilaga qarshi markizm", "Bezbet", "Qanot aka" kabi bo'limlari turli voqealarni aks ettirayotgandek tuyulsa-da, ularni bir umumiy motiv – ma'naviy uyg'onish birlashtirib turadi.

Muallif kitobxonni fikrlashga, his etishga, insoniy qadriyatlar haqida qayta o'ylashga undaydi:

– Qizim, endi oltin medal masalasi hal bo'layotir, ota-onalar kurashi boshlangan. Xohlasang, ota-onalar kurashiga qatnashamiz...

– Bo'ldi, tushundim, dada. Menga oltin medal kerak emas, bilim olsam bo'lgani...

Kitobni mutolaa qilarkansiz, uning yuqorida keltirganimiz kabi hayot haqiqatlariga to'la ekaniga guvoh bo'lasiz. Ba'zi voqealarni hatto boshingizdan kechirganday his qilasiz.

Roman sizni ham o'z dunyosiga cho'mdirishi shubhasiz.

KITOBXON





Qodirova Shahlo Salomovnaning 14.00.05 – Ichki kasalliklar hamda 14.00.18 – Psixiatriya va narkologiya ixtisosliklari bo'yicha “COVID-19 o'tkazgan, yurak-qon tomir kasalliklari bor bemorlarda psixoemotsional buzilishlarni korreksiya usullarini optimallashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 22-aprel kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200100, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50; e-mail: buhme@mail.ru

Boboxonova Mamuraxon Normirza qizining 11.00.04 – Meteorologiya. Iqlim-shunoslik. Agrometeorologiya ixtisosligi bo'yicha “O'zbekiston ob-havosiga El-Ninyo va La-Ninya jarayonlarining ehtimoliy ta'sirini baholash” mavzusidagi(geografiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.18/2025.27.12.Gr.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 17-aprel kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100052, Toshkent shahri, Bodomzor yo'li, 1-tor ko'chasi, 72-uy.

Tel/faks: (71) 235-85-12, 237-13-19; e-mail: info@nigmi.uz

Mamarasulova Dildoraxon Kamolidin Qizining 06.01.09 – O'simliklarni himoya qilish ixtisosligi bo'yicha “Trichogrammatidae turlarini sun'iy oziqada ko'paytirish va tomatdosh ekinlarda Lepidoptera turkum vakillariga qarshi qo'llash” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi(patent bilan) Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2015.27.12.Qx.01.01 raqamli ilmiy kengashining 2026-yil 22-aprel kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY, PSUYAITI ko'chasi.

Tel/faks: (78) 150-62-84; e-mail: paxtauz@mail.ru

Turayeva Firuzaxon Alisherxon qizining 14.00.11 – Dermatologiya va venerologiya ixtisosligi bo'yicha “Panmiks va inbred sharoiida tug'ilgan, ixtioz kasalligi bilan xastalangan bemor bolalarda kasallikni kechishini klinik va immunologik xususiyatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 28-aprel kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.

Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: info@tashmeduni.uz

Isabekov Serik Risbek o'g'lining 11.00.03 – Quruqlik gidrologiyasi. Suv resurslari. Gidrokimyo ixtisosligi bo'yicha “O'zbekistonda atmosfera yog'inlari kimyoviy va izotop tarkibining hududiy xususiyatlari” mavzusidagi(geografiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.18/2025.27.12.Gr.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 17-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100052, Toshkent shahri, Yunusobod tumani,

Bodomzor yo'li, 1-tor ko'chasi, 72-uy.

Tel/faks: (71) 235-85-12, 237-13-19; e-mail: info@nigmi.uz

Ashirov Boyburi Sheraliyevichning 05.09.07 – Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi ixtisosligi bo'yicha “Suv omborlariga quyiladigan kanallar o'zani-da deformatsiya qonuniyatlarini baholash” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.T.17.02 raqamli ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 21-aprel kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 180119, Qarshi shahri, Mustaqillik shohko'chasi, 225-uy, 2-“a” bino, 239-xona.

Tel/faks: (75) 221-09-23, 224-13-95; e-mail: kstu@kstu.uz

Baxtiyorova Munira Sultonaliyevnaning 03.00.04 – Mikrobiologiya va virusologiya ixtisosligi bo'yicha “Pomidor mevasi jigarrang bujmayishi(Tomato brown rugose fruit virus) virusini ajratish, xususiyatlarini o'rganish va uning diagnostikasi” mavzusidagi(biologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.01/2025.27.12.B.04.05 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 20-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111700, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy.

Tel/faks: (70) 716-68-05, 716-68-11; e-mail: tvchdpi_k.kengash@umail.uz

Xurramov Alisher G'ayratovichning 06.01.09 – O'simliklarni himoya qilish ixtisosligi bo'yicha “Toshkent shahri va Toshkent viloyatidagi ayrim manzarali daraxtlarning zamburug'lar qo'zg'atadigan kasalliklari va ularga qarshi kimyoviy kurash chorasi” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.01.01 raqamli ilmiy kengashining 2026-yil 22-aprel kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY, PSUEAITI ko'chasi.

Tel/faks: (78) 150-62-84, 150-61-37; e-mail: paxtauz@mail.ru

Shavdirova Gulbonu Mansurovnaning 14.00.09 – Pediatriya ixtisosligi bo'yicha “Erta yoshdagi bolalarda antibiotik bilan bog'liq diareyalar: xavf omillari, klinik-laborator kechish xususiyatlari, davolash va profilaktikasi” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.17.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 17-aprel kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.

Tel/faks: (66) 233-30-34; e-mail: ilmiyprorektori@sammi.uz

Xudayberdiyeva Janona Rustamovnaning 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha “Pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonini individuallashtirishning pedagogik tizimini takomillashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2025.28.11.Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 18-aprel kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 6-uy.

Tel/faks: (55) 508-06-67; e-mail: avloniy@exat.uz, info@avloniy.uz

Salimova Kamola Arifdjanovnaning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha “Rezus nomutanosiblikda homila gemolitik kasalligini homila ichi immunologik tashxislashini takomillashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 22-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, (95) 911-00-50; veb-sayt: www.bsmi.uz; e-mail: info@bsmi.uz

Yusupova Manzuraxon Qobuljon qizining 14.00.21 – Stomatologiya ixtisosligi bo'yicha “Surunkali tarqoq parodontit bilan kasallangan bemorlarni ortopedik davolashni optimallashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 28-aprel kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Yevstafeyev Yevgeniy Aleksandrovichning 04.00.13 – Neft va gaz konlarini o'zlashtirish hamda ishlatish ixtisosligi bo'yicha “Ko'p komponentli konlardagi flyuidlarning fazaviy o'zgarishlarini modellashtrish orqali konlarni optimal ishlatish variantini asoslash” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi “O'ZLITINEFTGAZ” AJ huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.36/2025.27.12.T.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 22-aprel kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100029, Toshkent shahri, Taras Shevchenko ko'chasi, 2-uy.

Tel/faks: (71) 280-67-00, 256-66-48, 280-67-46; e-mail: liting@liting.uz

Latipov Abdulaziz Yashinovichning 14.00.05 – Ichki kasalliklar ixtisosligi bo'yicha “Infarktdan keyingi kardioskleroz lokalizatsiyasining diastolik funktsiyaga va natriyuretik peptid darajasiga ta'siri” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 28-aprel kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Tursunov Avazbek Abdulvoxidovichning 06.01.08 – O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha “G'o'za bilan qo'sh ekinlarni plyonka ostida yetishtirishning o'simliklar o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'siri” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/2025.27.12.Qx.04.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 24-aprel kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuygan-yor shaharchasi, Andijon ko'chasi, 36-uy.

Tel/faks: (74) 373-12-05, 373-12-05; e-mail: ddeiti19@mail.ru

Begimqulova Dilnoza Meyliyevnaning 06.01.08 – O'simlikshunoslik ixtisosligida “Yumshoq bug'doy doni tarkibida temir miqdorini oshiruvchi agrotexnik tadbirlarni ishlab chiqish” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/2025.27.12.Qx.04.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 25-aprel kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuygan-yor shaharchasi, Andijon ko'chasi, 36-uy.

Tel/faks: (74) 373-12-05, 373-12-05; e-mail: ddeiti19@mail.ru

Fayzullayeva Dildora Ulug'bekovnaning 06.01.08 – O'simlikshunoslik ixtisosligida “Janubiy mintaqalarda shirin makkajo'xorining o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ekish va o'g'itlash me'yorlarining ta'siri (Qashqadaryo viloyatining och tusli bo'z tuproqlar misolida)” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/2025.27.12.Qx.04.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 24-aprel kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuygan-yor shaharchasi, Andijon ko'chasi, 36-uy.

Tel/faks: (74) 373-12-05, 373-12-05; e-mail: ddeiti19@mail.ru

Bazarbayev Maxsetbay Muratbayevichning 05.09.05 – Qurilish materiallari va buyumlari ixtisosligi bo'yicha “Ikkilamchi xomashyolar asosidagi g'ovak to'ldiruvchi va undan foydalanib olingan yengil beton” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.09.01.T.02.M raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 22-aprel kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100194, Toshkent shahri, Yangishahar ko'chasi, 9-uy.

Tel/faks: (55) 508-02-95, 508-50-06; e-mail: devon@taqu.uz




RANGLAR VA HISLAR UYG'UNLIGI



Bahor. Toshkent ko'chalarini musavvir ajib bo'yog'i bilan bezagandek. Tabiatning turfa xil ranglari bilan tabiat uyg'unlashib, mo'jizaviy tus olgan.

Bunday go'zallik insonni yashashga, zavqlanishga chorlaydi, qalbga iliqlik va umid bag'ishlaydi. Shahar ko'chalarini piyoda sayr qilar ekansiz, daraxtlarning gullashi, tabiat jonlangani, insonlarning ko'zida zavq-u shavqni ko'rasiz. Go'yo har bir yaproq, har bir gul hayot madhiyasini kuylayotgandek. Chorsu tomonga yo'l olsangiz, qadimiy gumbazlar, eski shahar va yon-atrofdagi binolar peshonasini saxiy quyosh o'pich bilan erkalatayotganday tuyuladi. Kabutarlarning chug'ur-chug'uri esa bu manzaraga alohida fayz bag'ishlaydi. Bodom gullari viqor bilan bahorning nafis libosini eslatadi. Maysalarning yoqimli hidi esa insonni bolalik xotiralariga eltadi. Yengil shamol esa gullarning iforini ko'chalar bo'ylab yoyib, har bir yurakni quvonchga to'ldiradi. Bularning barchasini faqat tasavvur qilish bilan cheklanmay o'z ko'zingiz bilan ko'rishingiz kerak.

Muhammadbobur MAHMARAYIMOV olgan suratlar



Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-6110. Tiraji-6878.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFON:

Tel/faks: (55) 512-01-50



"Ma'rifat" dan
materiallarni ko'chirib bosish
tahririyat ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.
Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar
taqriz qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Mobil ilovani
yuklab olish uchun
ushbu QR-kodni skanerlang:

t – tijorat belgisi.

Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:
100099 Toshkent shahri,
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.
Veb-sayt: www.marifat.uz

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida
chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher
Navoiy ko'chasi, 30-uy.

